

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 77 (1676), 2026-yil 18-aprel, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



## YUKSAK G‘ALABALARGA E‘TIBOR VA E‘TIROF ORQALI ERISHILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida shaxmatchimiz, Xalqaro shaxmat federatsiyasining Nomzodlar turniri g‘olibi Javohir Sindorovni sharaflashga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.



Shaxmatimiz tarixida birinchi marotaba Javohir Sindorov Nomzodlar turnirida g‘alaba qozonib, tom ma‘noda tarixiy natijaga erishdi. Musobaqa davomida u dunyoning eng kuchli grossmeysterlariga qarshi yuksak mahorat va katta jasorat bilan kurash olib bordi, har bir bahsda qat‘iyat, kuchli iroda va intellektual ustunligini namoyon etdi. Ayniqsa, bir marta ham mag‘lubiyatga uchramay, 14 ta partiyada 10 ochko to‘plagan, natijada ochkolar va g‘alabalar soni bo‘yicha rekordlar o‘rnatgan shaxmat olimida kamdan-kam uchraydigan noyob hodisadir.

Prezidentimiz marosimda so‘zga chiqib, Javohir Sindorovni mazkur tarixiy zafar bilan yana bir bor samimiy qutladi. Bu butun xalqimizning, Yangi O‘zbekistonning g‘alabasi ekanini ta‘kidladi.

— Albatta, hech bir natija o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Buning zamirida uzoq yillik tinimsiz mehnat, bolalikdan o‘rtirilgan tajriba, qat‘iyat, temir intizom va albatta, ustoz va murabbiylarning sabog‘i, ota-ona, bobo va buvijonlarning duosi mujassam. Fursatdan foydalanib, mana shunday o‘zbek o‘g‘lonini tarbiyalab, voyaga yetkazgan

bobong va buvingga, ota-onangga, ustoz va murabbiylaringga yana bir bor o‘zimizning minnatdorchiligini bildiraman, — dedi davlatimiz rahbari.

Qayd etilganidek, Javohir Sindorov turir davomida shaxmat taxtasi ustida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan mustahkam iroda, o‘ziga ishonch, chuqur tafakkur va sabr-bardoshni namoyon etdi. Ayniqsa, Hindiston, AQSH, Xitoy, Niderlandiya, Germaniya va Rossiya vakillari bo‘lgan super grossmeysterlarga qarshi bosqichlik va mardonavorlik bilan kurash olib borgan alohida e‘tirof etildi.

Davlatimiz rahbari Javohir Sindorovning bu yuksak yutug‘i mamlakatimizda sportga, jumladan, shaxmatni rivojlantirishga qaratilayotgan doimiy e‘tibor va g‘amxo‘rlikning amaliy samarasi ekanini ta‘kidladi. Bugun Yangi O‘zbekistonda ana shunday g‘olib, mard va matonatli yoshlar kamol topayotgani barchamizga cheksiz faxr-iftixor bag‘ishlaydi. Shu ma‘noda, bugun FIDE reytingidagi eng kuchli besh shaxmatchidan ikki nafari o‘zbek o‘g‘loni ekanini milliy shaxmat maktabimizning salohiyati va nufuzi tobora yuksalayotganidan dalolat beradi. Bulaming barchasi minglab iste‘dodli yoshlarimiz, umidli shaxmatchilarimiz uchun katta motivatsiya bo‘lishi ta‘kidlandi.

Marosimda Javohir Sindorov oldida turgan navbatdagi yuksak maralar haqida ham so‘z yuritildi. Uning jahon shaxmat toji uchun bo‘ladigan hal qiluvchi bellashuvda munosib ishtirok etishiga, o‘zbek shaxmat maktabining salohiyati va shon-shuhratini yana bir bor butun dunyoga namoyon etishiga ishonch bildirildi. Shuningdek, bu yil sentabr oyida Samarqand shahrida o‘tdigan 46-butunjahon shaxmat olimpiadasida ham xalqimiz g‘alaba kutayotgani ta‘kidlandi.

Tadbirida mamlakatimizda shaxmatni keng ommalashtirish, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ushbu sport turini targ‘ib etish, navqiron avlod qalbidagi milliy g‘urur, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish borasidagi katta xizmatlari, shuningdek, Kiprda o‘tkazilgan FIDE Nomzodlar turnirida rekord natijalar ko‘rsatib, muddatidan oldin g‘oliblikni qo‘lga kiritgani uchun Javohir Sindorov “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotlangani to‘g‘risida Prezident farmoni o‘qib eshittirildi.

Davlatimiz rahbari ushbu yuksak mukofotni tantanali ravishda topshirdi.

Grossmeysterimiz yoshlarga, sport rivojiga qaratilayotgan doimiy e‘tibor va yaratilayotgan keng sharoitlar, ko‘rsatilgan yuksak ishonch hamda e‘tirof uchun Prezidentimizga chuqur minnatdorchilik bildirdi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Matbuot xizmati surati.

### O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

#### SINDOROV JAVOHIR SANJARBEKOVICHNI

#### “MEHNAT SHUHRATI” ORDENI BILAN MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Yangi O‘zbekiston shon-shuhratini xalqaro miqyosda yuksaltirishga qo‘shgan ulkan shaxsiy hissa, mamlakatimizda shaxmatni keng ommalashtirish, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ushbu sport turini targ‘ib etish, navqiron avlod qalbidagi milliy g‘urur, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish borasidagi katta xizmatlari, shuningdek, Kiprda o‘tkazilgan Xalqaro shaxmat federatsiyasi Nomzodlar turnirida o‘zining yuksak intellektual salohiyati va

professional mahoratini yaqqol namoyon etib, dunyoning eng kuchli grossmeysterlari orasida rekord natijalar ko‘rsatgani va muddatidan oldin g‘oliblikni qo‘lga kiritgani

uchun shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a‘zosi Sindorov Javohir Sanjarbekovich “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotlansin.

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,  
2026-yil 17-aprel



## JAVOHIR

Temurbek nasidan shahzodadir xo‘b,  
Nigohini tojdan olmas Javohir.  
Bu dunyoda yaltir-yultur toshlar ko‘p,  
Eng toza, eng noyob olmos Javohir!

Ulin avlod ichra yarqiragan ganj,  
Har yurish ortida necha zahmat, ranj,  
Qaltis o‘yin erur bu ko‘hna shatranj,  
Oltga qamchi bosar – tolmaz Javohir.

Pishnab, bir-biridan o‘zar raqiblar,  
U-chi, eng oldinda – to‘zar raqiblar.  
Tuzoq qurib, yo‘lin to‘sar raqiblar,  
Chalq‘imas, yo‘lidan qolmas Javohir.

Olisni ko‘zlagan farzin, fili bor,  
Ruhi tik otilgay – o‘g‘ri fe‘li bor,  
Piyodalar – qalqon bo‘lgan eli bor,  
Behuda qirg‘inga solmas Javohir.

Orta tog‘day turar donishmand shohi,  
Har sipoh holini bilgich – ogohi.  
Qo‘llar yurt sarvari, davlatpanohi –  
E‘zoz-u ardoqdan lol, mast Javohir!

Shu buyuk millatning arzandasi u,  
Elning kulgan baxti, sho‘x xandasi u,  
O‘zbek zakosining g‘olib sasi u,  
Tafakkur taxtidan tonmas Javohir!

Vatan tug‘in baland tutaver, o‘g‘lon,  
Tilla toj seniki – o‘taver, o‘g‘lon!  
To‘xtama, yutaver, yutaver, o‘g‘lon,  
Xalqim g‘alabangga qonmas, Javohir!

Nodir JONUZOQ



### Uchinchi Renessans bunyodkorlari

## O‘ZBEK O‘G‘LONI SHAXMATNING YANGI TARIXINI YOZMOQDA

Kipr mezbonlik qilgan shaxmat bo‘yicha 2026-yilgi Nomzodlar turniri o‘zbekistonlik grossmeyster Javohir Sindorov uchun ulkan muvaffaqiyat bilan yakunlandi. Vatandoshimiz dunyo shaxmati tarixida misli ko‘rilmagan natijalarni qayd etgan holda musobaqa chempioniga aylanib, jahon shaxmat toji uchun da‘vogar maqomini qo‘lga kiritdi.

▶ Davomi 3-betda

## IJTIMOY HIMOYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA TAKLIFLAR KO‘RIB CHIQLDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 17-aprel kuni aholini, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish, shuningdek, bu sohada qonunchilik bazasini yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy himoya sohasini yangi bosqichga olib chiqish, ehtiyojmand fuqarolarga davlat ko‘magini manzilli va shaffof tarzda yetkazish, xizmatlarni raqamlashtirish hamda ularni proaktiv shaklda taqdim etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda nogironlik bo‘lgan shaxslar, o‘zgalar parvarishiga muhtoj fuqarolar, nogironlik bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalar, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollar hamda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatayotgan tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Taqdimotda ruhiy holatida buzilishlari mavjud nogironlik bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish masalasi ko‘rib chiqildi. Qayd etilganidek, bu borada asosiy maqsad — ularning jamiyat hayotida to‘laqonli ishtirokini ta‘minlash, oila muhitiga yaqin sharoitda kompleks xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek, parvarish bilan band bo‘lgan oilalarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Xususan, 2026-yil 1-iyungacha qadar 0-3 yoshda rivojlanishida nuqsonlar aniqlangan bolalar uchun ilk bor “Erta aralashuv” xizmati bosqichma-bosqich joriy etiladi. Ushbu xizmat orqali maxsus pedagoglar va davolovchi jismoniy tarbiya yo‘riqchilari ishtirokida bolalarga korreksion-pedagogik yordam, nutq va jismoniy rivojlantirish mashg‘ulotlari ko‘rsatiladi. Xizmat nodavlat tashkilotlar tomonidan maxsus elektron reyestr asosida yo‘lga qo‘yiladi. Shuningdek, anatomik nuqsonlar bilan tug‘ilgan bolalarning to‘g‘shimcha tibbiy tekshiruv va jarrohlik xarajatlari Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi hisobidan qoplanadi.

Ruhiy holatida buzilishlari mavjud I va II guruh nogironlik bo‘lgan shaxslar uchun ham 2026-yil davomida bosqichma-bosqich yangi ijtimoiy xizmatlar joriy etiladi. “Yangi kun” kunduzgi qarab turish xizmati, uy sharoitida qarab turish xizmati, kichik hajmli “Madad” uyi xizmati va “Ijtimoiy ta‘til” qisqa muddatli joylashtirish xizmati yo‘lga qo‘yiladi. Bu xizmatlar qarab turish va parvarish qilish, kundalik hayot ko‘nikmalarini shakllantirish, maishiy ishlar o‘rgatish, kasb va moliyaviy hisob-kitob ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali oilalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘ladi.

Mazkur yangi xizmatlar davlat-xususiy sheriklik asosida malakaga ega bo‘lgan va zarur talablarga javob beradigan nodavlat tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladi. Bu orqali 2026-yilda 8,3 ming nafar ruhiy holatida buzilishlari mavjud shaxsni yangi xizmatlar bilan qamrab olish, 600 tagacha nodavlat tashkilot va yakka tartibdagi tadbirkorlarni ijtimoiy xizmat ko‘rsatishga jalb etish rejalashtirilgan. Yangi xizmatlardan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlari Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasi hisobidan subsidiya shaklida qoplab beriladi.

Shu bilan birga, 2026-yil 1-sentabrdan boshlab 18 yoshdan katta chuqur darajadagi aqliy zaiflik tashxisi qo‘yilgan shaxslarning parvarishi bilan band bo‘lgan qonuniy vakillar uchun har oylik yangi parvarishlash nafaqasi joriy etiladi.

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari vakolatlari ham kengaytiriladi. 2026-yil 1-iyundan boshlab ularning xodimlari tuman va shahar hokimliklari huzuridagi vasiylik va homiylik komissiyalari tarkibiga kiritiladi. Shuningdek, ruhiy holatida buzilishlari mavjud shaxslarga tayinlangan vasiy va homiylik tomonidan majburiyatlarini bajarilishi, ushbu shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlari, mol-mulkinining muhofazasi, ularning ta‘ziy va zo‘ravonlik holatlari muntazam monitoring qilib boriladi.

Internet muassasalarini transformatsiya qilishga ham alohida e‘tibor qaratiladi. Takliflarga ko‘ra, “Muruvvat” internet uylari bosqichma-bosqich “G‘amxo‘rlik” markazlariga aylantiriladi. Endi mazkur muassasalar asosan tibbiy-ijtimoiy emas, balki ijtimoiy yondashuv

asosida ishlaydigan, shaxsni jamiyatga moslashtirishga qaratilgan markazlar sifatida faoliyat yuritadi. U yerda yashovchilarni sport, ijodiy, ergoterapiya, mehnat va ijtimoiy-ma‘naviy terapiyaga jalb qilish, “murabbiy kuzatuvda” mustaqil yashash xizmati orqali hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish, oilaviy muhitga yaqin kichik hajmli uylar tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Taqdimotda ijtimoiy himoya sohasidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan yangi tashabbuslar ham muhokama qilindi. Xususan, shaxsni nogironlik belgisi bo‘yicha kamsitish uchun javobgarlikni kuchaytirish, sud qarorlarini nogironlik bo‘lgan shaxslar uchun maqbul shaklda taqdim etish, ijtimoiy xizmat va kafolatlarni yagona Ijtimoiy reyestr asosida manzilli yo‘naltirish nazarda tutilmoqda.

Kunduzgi parvarish xizmatlarini rivojlantirish ham muhim yo‘nalish sifatida qayd etildi. 3-18 yoshgacha nogiron farzandini kunduzgi parvarish xizmatiga bergan ota-onalar uchun ushbu xizmatga har oyda to‘lanadigan 3 million so‘mgacha bo‘lgan mablag‘ni daromad solig‘idan, davlat-xususiy sheriklik asosida nogiron bolalarga kunduzgi parvarish xizmatini ko‘rsatayotgan tadbirkorlarni esa 2030-yilgacha soliqlardan ozod qilish ko‘zda tutilmoqda. Bugungi kunda bunday xizmatlar 396 ta tadbirkor tomonidan yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular 4,4 mingdan ortiq nogironlik bo‘lgan bolaga xizmat ko‘rsatmoqda.

Shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanish huquqiga ega toifalarni kengaytirish masalasi ham ko‘rib chiqildi. Jumladan, I guruh nogiron bo‘lgan shaxslar va ularga hamrohlik qiluvchi bir nafar shaxs, shuningdek, 1941-1945-yillardagi urush nogironlariga tenglashtirilgan shaxslarga mazkur huquqni taqib etish taklif qilinmoqda.

Taqdimotda tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlashga qaratilgan yangi mexanizmlar ham muhokama qilindi. Xususan, ularni alohida murojaatsiz, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari talabnomasi asosida ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatga olish, ishga joylashtirish xizmatlarini ko‘rsatish va natijalar bo‘yicha tezkor axborot almashish tartibini joriy etish rejalashtirilgan.

Bolalar huquqlarini himoya qilish va voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘ravonlikning ayrim shakllariga qarshi kurashish sohasida ham qonunchilikni kuchaytirish masalasi ko‘rib chiqildi. Ularga ko‘ra, voyaga yetmaganlar tasvirlangan pornografik materiallarni tarqatish maqsadida saqlanganlik uchun alohida ma‘muriy javobgarlikni belgilash, shu kabi huquqbuzarlik takroran sodir etilganda jinoyi javobgarlikni qo‘llash, internet va telekommunikatsiya tarmoqlari orqali 16 yoshga to‘lmagan shaxslarga nisbatan uyatsiz-buzuz harakatlar sodir etganlik uchun jazoni kuchaytirish nazarda tutilgan. Voyaga yetmaganlar tasvirlangan pornografik mahsulotlarni tarqatish maqsadida respublikaga olib kirganlik, bunday mahsulotni tayyorlaganlik, reklama qilganlik, namoyish etganlik yoki voyaga yetmagani pornografik harakat ijrochisi sifatida jalb etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi belgilanmoqda.

Shuningdek, voyaga yetmagan guvoh va jabrlanuvchilarning huquqlarini ishonchli himoya qilish maqsadida ularning qonuniy vakili instituti joriy etilmoqda va so‘roq qilishning aniq vaqt me‘yorlari belgilanmoqda.

Taqdimotda Jizzax viloyatida “islohotlar shtabi” tomonidan mahallalarning solishtirma ustunliklaridan kelib chiqqan holda shakllantirilgan loyihalarni taqdimotda ham axborot berildi.

Davlatimiz rahbari ijtimoiy himoya sohasidagi yangi mexanizmlar va takliflarni ma‘qullab, tegishli qonun hujjatlarini imzoladi.

O‘ZA





# VATANIMIZNI CHIN DILDAN SEVAYLIK!

O'ttiz yildan oshibdiki, san'at sohasidaman. Ayniqsa, teatr hayotim mazmuniga aylangan. Har yili 27-mart — Xalqaro teatr kunida bir olam quvonchga to'laman. Shu sohani, mashaqqatli bo'lsa-da, sharaffi yo'lni tanlab to'g'ri qilganimni qayta anglayman. 2022-yildan boshlab esa biz, san'at vakillari qo'shaloq bayramni nishonlaydigan bo'ldik. 15-aprel sanasi chinakam kasb bayramimiz sifatida hayotimizdan mustahkam o'rin oldi.

“Kasb bayramingiz muborak!” degan tabriklar shu kuni kechga qadar tinmaydi. Bunday e'tibordan kishi ruhan va qalban o'sib, tetiklashib ketadi. Hamkasblarim bilan birgalikda san'atga alohida e'tibor qaratayotgan, kasbimizni el ichida ulug'lab qo'ygan davlatimiz rahbariga tashakkurlar aytamiz. Bor kuchimiz bilan shu elning koriga yarash yo'lidagi ahdimiz esa yanada qat'iylashadi.

Yangi O'zbekistonda milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlarini asrab-avaylash, tarixiy xotirani tiklash hamda yosh avlod qalbidagi vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda teatr san'atining o'zini g'oyat muhim. U aholing madaniy ehtiyojini qondirishi, tomoshabiniga qaysidir ma'noda o'z ta'sirini o'tkazishi kerak. Shu ma'noda, bu san'at vakillarining vazifasi oson emas.

Zero, teatr sahnasi — hayotimiz ko'zgusi. Unda inson taqdiri, jamiyat muammolari, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy kurash, shuningdek, muhabbat va vofo, sadoqat va adolat kabi umuminsoniy qadriyatlar aks etadi. Quvonarli shundaki, bugungi kunda teatr san'atining yangilanayotgan madaniy hodisa sifatida xalqimiz hayoti va turmush tarzidagi mavqei hamda ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, an'anaviy teatr haftaligida bunga yana bir bor amin bo'lyapmiz. Katta, tarixiy asarlar namoyishiga turaqotlar navbatlar paydo bo'layotgani bizga kuch beradi. Minnatdorchilik bildirish maqsadida spektakldan so'ng bizni kutib turadigan muxlislar soni ortyapti. Bu ham eng katta yutuq'imizdir.

Odamlarning teatrqa qaytishida, uning qadrimatini hech narsaga tenglab bo'lmagani



Lola ELTOYEVA,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
artist

anglab yetayotganida amalga oshirilayotgan ishlohtlar va ezgu sa'y-harakatlarning o'rni juda katta. Madaniyat va san'at alohida qadrlanayotgani uchun ham biz — san'atkorlar qator yutuqlarga sazovor bo'lyapmiz. Xalqaro TURKSOY tashkilotining “Eng yaxshi teatr aktrisasi” nominatsiyasi bo'yicha xalqaro mukofotiga erishganimda ham buni alohida e'tirof etdim. Chindan, bu O'zbekistonning, jonajon xalqimizning yutuq'idir. Shunday ekan, nega yonib xizmat qilmaylik, nega vatanimizni chin dildan sevmaylik?! Nega yurtimiz nomini dunyoga keng yoyadigan, sharafini ulug'laydigan yosh avlodga bor tajribamiz va bilimimizni o'rgatmaylik?!

Iqtidorlarimiz, san'atimizning umidli vakillari juda ko'p. Ular tinch va farovon, jannatnondan yurtda o'z orzulari ro'yobi sari dadil qadam tashlamoqda. O'zlarini havas qilgan soha vakillarining ortidan ergashmoqda. Bularning barcha-barchasi ko'rsatilayotgan e'tibor va e'tirof natijasidir. Qolaversa, qaysi soha vakili bo'lishidan qat'i nazar, har bir inson jamiyatda o'z o'miga ega ekanini amalda ko'rayotganining yaqqol ifodasidir.



## FARMATSEVTIKA TARMOG'I

### 800 million AQSH dollari qiymatidagi investitsiya loyihalari boshlanadi va 350 turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish o'zlashtiriladi

Davlatimiz rahbarining “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ishlohtlar dasturlari va “O'zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida”gi farmonida 2026-yilda aholining o'rtacha umr davomiyligini oshirish, eng ko'p uchraydigan kasalliklarni barvaqt aniqlash va ular bilan kasalanishni keskin kamaytirish, shuningdek, raqamli texnologiyalar joriy etilgan tibbiyot mahsulotlari ulushini oshirish borasida qator muhim vazifalar belgilangan.

Aholi orasida sog'lom turmush tarzi, xususan, tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom ovqatlanish, kunlik yurish va yugurishni targ'ib qilish, oilaviy poliklinikalar, oilaviy shifokorlik punktlari va mahalla tibbiyot punktlarida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning samarali tizimini joriy etish shular jumlasidan.

O'z navbatida, aholini sifatli, xavfsiz va har tomonlama kafolatlangan dori-darmon bilan ta'minlash ham mazkur vazifalarni izchil amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Zero, farmatsevtika inson salomatligi va mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi bilan bevosita bog'liq strategik soha. Shu bois, so'nggi yillarda yurtimizda ushbu sohani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, o'tgan to'qqiz yilda tarmoqqa 1 milliard 800 million dollar investitsiya kiritilib, 140 ta yangi ishlab chiqarish quvvati ishga tushirildi.

Ayni paytda mamlakatimizda 300 dan ortiq farmatsevtika korxonasi faoliyat yuritmoqda, ularning 58 tasi to'g'ridan to'g'ri dori-darmon ishlab chiqaradi. Biroq bu ko'rsatkichlar mavjud salohiyat va imkoniyatga mos emas. Ayni masala joriy yil 5-mart kuni davlatimiz rahbari raisligida farmatsevtika tarmog'ida ishlab chiqarishni kengaytirish hamda sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etishni jadallashirish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida atroflicha muhokama qilinib, vazifalar belgilab berildi.

Mazkur taklif va tashabbuslarni ro'yobga chiqarish, vazifalar ijrosini to'laqonli ta'minlash maqsadida O'zbekiston Prezidentining “Farmatsevtika tarmog'ida ishlab chiqarishni rag'batlantirish va ilmiy tadqiqot jarayonlarini

takomillashirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni qabul qilindi.

Hujjat bugun tobora tarmoqlari kengayib, talab kuchayayotgan farmatsevtika sohasini jadallashirish, sohaga jalb etilayotgan investitsiya va eksport hajmini oshirish hamda eng muhimi, aholini sifatli, xavfsizligi va samaradorligi kafolatlangan dori-darmon bilan ta'minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Joriy yil yakuniga qadar sohada ishlab chiqarish hajmi 8,5 trillion so'mga yetkaziladi, qiymati 1 milliard AQSH dollari bo'lgan istiqbolli investitsiya loyihalari shakllantiriladi. Shuningdek, 800 million AQSH dollari qiymatidagi yangi investitsiya loyihalari boshlanadi va 350 turdagi yangi mahsulotlar ishlab chiqarish o'zlashtiriladi.

Farmon bilan tarmoq korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida katta miqdordagi moliyaviy resurslar yo'naltirilib, tashkiliy-huquqiy mexanizmlar takomillashmoqda. Xususan, 1 yil ichida mazkur yangi turdagi dori-darmon ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan ishlab chiqaruvchilarga “texnologiyalar

transferi” xarajatlarining 50 foizi Farmatsevtika tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadli davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab beriladi.

Shu bilan birga, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan 80 million dollar miqdoridagi mablag' tijorat banklari tomonidan asbob-uskunalar va xomashyo sotib olish uchun kreditlar ajratishga yo'naltiriladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda dori-darmon va tibbiy buyumlar doru-hajmi qariyb 2,5 milliard dollarga yetgan. Ular orasida biologik faol qo'shimchalarga talab yil sayin oshib bormoqda.

Ayni maqsadda 2027-yil 1-yanvardan boshlab “GMP” milliy sertifikatiga ega korxonalar ishlab chiqarish liniyalarida biologik faol qo'shimchalarni ishlab chiqarishga ruxsat beriladi.

Hujjat talablari asosida 2026-yil 1-iyundan boshlab ishlab chiqaruvchilarga EU GMP va US FDA GMP rasmiy sertifikatlarni joriy qilish bilan bog'liq xarajatlarning 50 foizi, ilmiy-tadqiqot institutlari va ta'lim muassasalari tomonidan yaratilgan farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga esa ushbu mahsulotlarni ro'yxatdan o'tkazish va klinik sinov xarajatlarining 80 foizi Savdoga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab beriladi.

Shuningdek, yuqori texnologiyali dori-darmon ishlab chiqarishga qaratilgan yangi investitsiya loyihalarini 3 yil muddatda foydalanishga topshirgan tadbirkorlarga 2 yil muddatga jalb qilingan kreditlar bo'yicha kredit



Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan 80 million dollar miqdoridagi mablag' tijorat banklari tomonidan asbob-uskunalar va xomashyo sotib olish uchun kreditlar ajratishga yo'naltiriladi.

foiz xarajatlarining bir qismi Farmatsevtika tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadli davlat jamg'armasidan kompensatsiya qilinadi.

Farmona muvofiq, 2026-yil 1-iyundan boshlab farmatsevtika korxonalariga soliqlar va yig'img'irdan qarzdorligi bo'lgan taqdirda ham davlat xaridlarida ishtirok etishga, shuningdek, 2026-yil 1-sentabrga qadar ishlab chiqaruvchi korxonalar mahalliy mahsulotlarini mahalliy ishlab chiqarish darajasidan qat'i nazar, elektron savdo platformalarida realizatsiya qilinishiga ruxsat beriladi.

Shu o'rinda bir mulohaza. Davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan respublikada 136 gektar maydonda 5 ta farmatsevtika sanoat zonasi tashkil etilgan bo'lib, ular uchun barcha zarur infratuzilma yaratilgan. Biroq ayrim hududlarda ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanilmayapti.

Jumladan, 25 gektar maydonni egallagan Jizzax farmatsevtika zonasida o'tgan yili bir so'mlik ham mahsulot ishlab chiqarilmagan. Bo'stonliq tumanidagi 14 gektar yer maydoni esa 2017-yildan buyon bo'sh turibdi. Shuningdek, o'tgan yili Jizzax va Samarqand viloyatlarida birorta ham farmatsevtika loyihasi ishga tushirilmagan.

Mavjud quvvatlardan samarali foydalanish, hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida farmon bilan endilikda tadbirkorlik subyektlari 2040-yilga qadar investitsiya loyihalari boshlangan sanadan e'tiboran 3-yil muddatga yer solig'i, ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha mol-mulk va foyda solig'idan ozod etilmoqda.

Shuningdek, norezidentlar uchun texnologiyalar transferi va brend nomi uchun olinadigan foyda solig'i stavkasi 2030-yil 1-yanvargacha qadar 5 foiz miqdorida belgilanadi.

Farmona kosmetologiya va biofaol qo'shimchalarni ishlab chiqaruvchilarga e'tibor qaratilgan. 2026-yil 1-apreldan boshlab biologik faol qo'shimcha va kosmetika vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga berilgan bojxona imtiyozlari tatbiq etiladi.

Yana bir muhim jihat — ilm va ishlab chiqarish integratsiyasi. Farmona muvofiq, O'zbekiston kimyo-farmatsevtika, Toshkent vaktsina va zardoblar, “Sharq tabobati” ilmiy-tadqiqot institutlari negizida Milliy biofarmatsevtika ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etiladi.

2026-2027-o'quv yilidan boshlab Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda Farmatsevtika texnik universiteti bilan o'zaro integratsiyalashgan o'quv dasturlari joriy qilinadi.

Bir so'z bilan aytganda, mazkur farmon, avvalo, aholini sifatli va xavfsiz farmatsevtika mahsulotlari bilan ta'minlashga, sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar mustahkam oyoqqa turib olishiga, ilmiy ishlab chiqarishga aylantirish orqali eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Hujjatda bu jazmni tashkil etuvchi barcha sharoit, imkoniyat va imtiyozlar aks etgan.

Lutfulla SUVONOV,  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



## Oramizdagi odamlar

Tong otadi. Shahar uyg'onadi. Ko'chalarda tunning sukunati sekin-asta kunduzning shovqiniga o'rin bo'shatmoqda. Kimdir ishga shoshadi, kimdir farzandini maktabga kuzatadi. Yana kimdir yangi kun rejalarini xayolan tartibga soladi. Har bir xonadonda hayot o'z maromi bilan boshlanadi: oshxonada choy qaynaydi, chiroqlar yonib turadi, xonadon issiq, suv jildirab oqmoqda. Lift eshiklari ochilib-yopiladi. Odamlar o'z manziliga oshiqadi. Bu — kundalik, oddiy va odatiy manzara.

Biroq aynan shu oddiylik ortida ko'pchilik o'ylab ham ko'rmaydigan, ammo hayotning o'zi kabi zarur bir haqiqat yashirin: qulaylik, farovonlik, inson uchun yaratilgan munosib sharoit. Biz ko'pincha bu ne'matlarni tabiiy hol, o'z-o'zidan mavjuddek qabul qilamiz. Go'yo issiq uy, toza suv, yorug'lik va boshqa imkoniyatlar doimiy va o'zgamasdek tuyuladi. Aslida, bu qulayliklar jamiyat taraqqiyotining eng muhim belgisi, davlat siyosati samaradorligining aniq ko'rinishi va minglab fidoyi insonlarning kunu tun qilgan mehnati natijasidir.

Yonib turgan har bir chiroq ortida elektr tarmoqlarini nazorat qilayotgan mutaxassislar, oqayotgan har tomchi suv ortida murakkab infratuzilmani boshqarayotgan muhandislar, issiq har bir xonadon ortida sovuqqa chidab ishlayotgan issiqlik tizimi xodimlari turibdi. Ular ko'pincha ko'zga ko'rinmaydi, nomi tilga olinmaydi, ammo ularning mehnatidagi bu oddiy manzaraning o'zi mavjud bo'lmagani edi.

Kundalik qulaylik shunchaki maishiy holat emas, balki taraqqiyot darajasini belgilaydigan muhim mezon. Zero, odam o'zini qay darajada erkin, xavfsiz va barqaror his qilsa, kelajakka ishonchi ham shunchalik mustahkam bo'ladi.

Aynan shu oddiy, bir qarashda sezilmas qulayliklar bugungi yangi O'zbekiston taraqqiyotida ustuvor ahamiyat kasb etayotganini anglash qiyin emas. Zero, insonning kundalik hayotini yangilashirish, munosib sharoitlarda yashashini ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan. Shu ma'noda, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasidagi keng ko'lami ishlohtlar ushbu hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqadi va ularni tizimli hal etishga qaratilgan.



So'nggi yillarda sohada mutlaqo yangicha boshqaruv modeli shakllandi. Ilgari ko'plab muammolar bilan yonma-yon tilga olinadigan uy-joy fondini saqlash va xizmat ko'rsatish tizimi bugun bosqichma-bosqich samarali va javobgar mexanizmga aylanib bormoqda. Xususan, ilg'or xorijiy tajribalar asosida tashkil etilgan boshqaruv servis kompaniyalari bu jarayonda hal qiluvchi o'rin tutmoqda. Bugun mamlakatimizdagi 45 mingta ko'p qavatli uyning 90 foizdan ortig'iga ana shunday tashkilotlar xizmat ko'rsatayotgani, avvalo, tartib va mas'uliyat muhiti shakllanayotganidan dalolat beradi.

Bu o'zgarishlar shunchaki tashkiliy ishloht emas, balki inson hayotida bevosita sezilayotgan yangilanishdir. So'nggi 9 yilda 3 trillion 700

# KUNDALIK HAYOTNING KO'RINMAS QAHRAMONLARI

## 18-APREL UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISH SOHASI XODIMLARI KUNI

xizmatlar sohasida raqamli texnologiyalarning keng qo'llanishi butun tizimning yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda.

Xususan, “Mening uyim” billing tizimi joriy etilishi bilan mamlakatimizda ko'p qavatli uy-joy fondini boshqarish va xizmat ko'rsatish jarayoni tubdan yangilandi. Ushbu tizim orqali qariyb 42 mingta ko'p qavatli uy va 1 million 500 mingdan ortiq mulkdor yagona elektron bazaga kiritildi. Bu statistik hisob-kitoblar shaffofligini bilan bir qatorda har bir xonadon kesimida aniqlik va nazoratni ta'minlash imkonini berdi.

Endi aholi kommunal xizmatlar bilan bog'liq barcha jarayonni — sarflangan resurslar,

bajarilgan ishlar, hisob-kitoblar va xizmat sifati ko'rsatkichlarini bevosita kuzatish, tahlil qilish hamda baholash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu holat fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlab, ularni tizimning oddiy iste'molchisi emas, balki nazoratchisi va baholovchisi sifatida shakllantirmoqda. Natijada xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatida mas'uliyat hissi kuchayib, raqobat va sifatga intilish ortmoqda.

Kommunal sohadagi ishlohtlarning yana bir muhim yo'nalishi infratuzilmani modernizatsiya qilish va keng ko'lami rivojlantirishdir. Bu borada qilingan ishlar mamlakatimiz aholisining kundalik hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.



Sardor TOLLIBOYEV,  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Uchinchi Renessans bunyodkorlari

O'ZBEK O'G'LONI SHAXMATNING YANGI TARIXINI YOZMOQDA



Boshlanishi 1-betda

Ta'kidlash kerakki, Javohir ushbu turnirda qatnashgan ilk o'zbekistonlik shaxmatchi bo'lib, mamlakatimizning mazkur sport turidagi qudrati va salohiyati naqadar yuqori ekanini amalda isbotlab qo'ydi. Musobaqa tarixida hali kuzatilmagan olamshumul ko'rsatkich — 14 imkoniyatdan 10 ochko jamg'arib, olti g'alabali partiya bilan turnirni mag'lubiyatsiz tugatdi. Bularning barchasi mazkur musobaqa uchun rekord sanaladi.

16-aprel kuni Kipping Peyya shaharchasida joylashgan "St. George's Hotel & Resort" majmuasida g'olib va sovrindorlarni tantanali taqdirlash marosimi o'tkazildi. Unda so'zga chiqqanlar Javohir Sindorov misolida O'zbekistonda sportga qaratilayotgan e'tiborni yuksak baholab, o'z havas va hurmatlarini izhor qildi. O'zbekiston vakili shohsupaga ko'tarilar ekan, uning qo'lga kiritgan yuksak natijalari alohida tilga olindi. Javohir Sindorovga nomzodlar turnirining bosh sovrinini shaxmat afsonalaridan biri, besh karra jahon chempioni hindistonlik Vishvanatan Anand topshirdi. G'olib sportchimiz sharafiga bayrog'imiz sarbaland bo'lib, madhiyamiz baralla jarangladi.

Chempionni taqdirlash marosimida O'zbekiston Prezidentining sportga, xususan, shaxmatga e'tibori yuqori baholandi. Undagi kulminatsion nuqta davlatimiz rahbarining Javohir Sindorov bilan telefon orqali muloqoti videolavhasi namoyish etilishi bo'ldi. Ushbu lahzalarni barcha katta hayajon bilan kuzatdi. Prezidentimizning "Meni faqat xursand qilib yuribsan. Butun xalqimiz duoda edi, mana shu duolari ijodat bo'ldi. Yurtimizning kuch-qudratini, yoshlar nimaga qodir ekanini, Uchinchi Renessans poydevori O'zbekistonda



bo'lishini butun dunyoga tarannum etding. Mana shu Uchinchi Renessans bunyodkorlarining shijoatini yaqqol ko'rsatding va dunyoga namoyish etding", degan so'zlar ingliz tilidagi videobuhtir orqali bosh ekranga chiqarildi. Shundan so'ng musobaqa chempioni Javohir Sindorov so'z o'lib, uni qo'llab-quvvatlagan barchaga, davlatimiz rahbariga, ustozlari va oila a'zolariga minnatdorlik bildirdi. Mazkur turnir uning hayotidagi eng sadoqatli musobaqa bo'lganini e'tirof etdi.

Kuni kecha g'olib shaxmatchimiz o'z jamoasi bilan birga yurtimizga qaytib keldi. Poytaxtimizdagi "Humo" xalqaro aeroportida Javohir Sindorov hukumat rasmiylari, oila a'zolari va ustozlari, ommaviy axborot vositalari xodimlari hamda keng jamoatchilik ishtirokida katta tantana bilan kutib olindi.

Bu yerda jam bo'lganlarning yuz-ko'zidagi iftixor, faxr va mamnuniyatni his qilish qiyin emasdi. Kutish zalida mana shunday mehrlar cheralardan biri bilan yuzlashdik: chempionning buvisi Jamila Sindorova o'z hissiyotlarini biz bilan o'rtoqlashdi. "Biz turnirda Javohirning muvaffaqiyat qozonishiga chin dildan ishongandik. U bu yo'lga qanchalik qattiq mehnat qilganiga o'zim guvohman. Tuyg'ularimni so'z bilan ifodalashim qiyin. Lekin hozir boshqa bir jihatga diqqat qaratmoqchiman. Angladimki, Javohir nafaqat mening, balki butun xalqimizning farzandi ekan. Ularning duolari, qo'llab-quvvatlashi, xayrixohligi ko'rib shunday xulosaga keldim. Javohirning o'zi ham buni his etib turgani va vatanimiz, ona xalqimiz mehriini oqlash uchun

harakatdan to'xtamasligiga ishonchim komil", deydi Jamila opa.

Umuman, mana shu ko'tarinki kayfiyat, ishonchni tadbirga yig'ilganlarning har birida kuzatish mumkin edi. Davrada so'z olganlar, jumladan, mutasaddirlar, shaxmatchining yaqinlari, murabbiylari uni yana bir tabriklab, kelgusi faoliyatiga ham omad va zafarlar tiladi. Tadbir davomida ushbu ulkan g'alaba sharafiga bitilgan she'rlar, vatanparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan kuy-qo'shiqlar yangradi. Jumladan, Javohir Sindorov ham o'z taassurotlarini yig'ilganlar bilan o'rtoqlashdi.

O'ylaymanki, butun dunyo allaqachon o'zbek shaxmati kuch-qudratini his qilib ulgurdi. Negaki keyingi yillarda yurtimizdan ko'plab iste'dodli shaxmatchilar, aytish mumkin, oltin avlod yetishib chiqmoqda, — deydi Javohir. — Albatta, bunday natijalar aslo o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. G'alabalarimiz ortida yurtimizda sportga, xususan, shaxmatga qaratilayotgan alohida e'tibor, yaratib berilgan sharoitlar katta o'rin tutadi. Bu bizning xotirjam, bor e'tiborimizni mashg'ulotlarga, tayyorgarlikka qaratishimizda g'oyat muhim.

Ayni fikrlarni tajribali grossmeyster, shaxmat bo'yicha jahon chempioni Rustam Qosimjonov ham tasdiqladi. "Javohir yarim yildan buyon xatosiz o'ynayapti. Biz eng yuqori sport formasiga erishganimizda ham bu darajada o'yin ko'rsata olmaganimiz. Sababi, sportchilar salohiyatini to'la ro'yobga chiqarishi uchun tizimli qo'llab-quvvatlov lozim. Shaxmat ham boshqa sport turlari kabi investitsiya talab qiladi. 80-90-yillarda biz juda kam murabbiylar bilan shug'ullanganmiz. Yangi O'zbekistonda sakkiz-o'n yoshli iqtidorli shaxmatchi chiqsa, uning murabbiyi grossmeyster bo'ladi. Hozir bizda 12 yoshli bolalarning murabbiyi jahon chempioni bo'lishi ham mumkin. Bu shuni

anglatadiki, davlatning shaxmatga bizzdagidek e'tibori boshqa hech qayerda yo'q. Shaxmatni rivojlantirish strategiyasi, bu borada hukumat qaror va farmonlari, Prezidentimizning bevosita e'tibori — hammasi bir bo'lib yangi-yangi zafarlarga zamin hozirlamoqda", deydi shaxmat bo'yicha terma jamoamiz murabbiyi.

Shuningdek, Javohir Sindorov kelgusi rejalarida ham to'xtalib o'tar ekan, sentyabr oyida Samarqandda bo'lib o'tadigan Jahon shaxmat olimpiadasida jamoa bilan birga zafar qushish, amaldagi jahon shaxmat toji egasi hindistonlik Gukesh Dommaraju bilan shu yil oxirida o'tkaziladigan matchlar seriyasida g'alaba qozonib, tojni yurtimizga olib kelish niyati borligini ta'kidladi. Undan keyingi muntazam chempionlik uchun o'yinlarda yana bir taniqli o'zbek grossmeysteri, dunyoning ayni vaqtdagi to'rtinchi raqamli shaxmatchisi Nodirbek Abdusattorovga qarshi dona surish istagini xayrixohlik bilan izhor qildi.

Javohir Sindorov yangi O'zbekiston shon-shuhratini xalqaro miqyosda yuksaltirishga qo'shgan ulkan hisssasi, mamlakatimizda shaxmatni keng ommalashtirish, ayniqsa, yoshlar o'rtaida ushbu sport turini targ'ib etish, navqiron avlod qalbidagi milliy g'urur, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish borasidagi katta xizmatlari e'tirof o'laroq, Prezidentimiz farmoniga muvofiq, "Me'nat shuhrati" ordeni bilan mukofotlandi.

Asliddin ABDURAZZOQOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

O'zbekiston qadimdan ilm-fan, madaniyat va intellektual o'yinlar rivojlangan zamin sifatida dunyoga mashhur. Ana shunday boy meroslardan biri shaxmatdir. U nafaqat o'yin, balki inson aqlini charxlovchi, sabr-toqat va strategik tafakkurni rivojlantiruvchi sport turi. Mamlakatimizda shaxmatga qiziqish ancha yuqori, ayniqsa, yoshlar o'rtasida. Umumta'lim muassasalari, sport maktablari va klublarda shaxmat to'garaklari faoliyat yuritmoqda. Bu esa kelajakda yangi chempionlar yetishib chiqishiga xizmat qiladi.



XALQIMIZ TIYNATIDA MUZAFFARLIK MUJASSAM

SHAXMAT TOJINI OLIB KELISHGA QODIR OLTIN AVLOD VAKILLARINING ZAFARLI ODIMLARI

Bugun o'zbek shaxmatchilari qatnashadigan har qanday katta-kichik xalqaro musobaqada kim g'alaba qozonishini taxmin qiluvchilar qiynalmaydi — zafar yoki sovrinli o'rin egasi, albatta, yurtimiz vakillari orasidan chiqyapti. Umuman, mamlakatimiz sportida erishilayotgan natijalar haqida gapirganda mutaxassis va murabbiylar shohshiq qolayotgani ham bor gap. Zero, bugun o'zbek bokschilari dunyodagi kuchli raqiblarining oyog'ini qaltirata boshlaganiga ancha bo'ldi. Qolaversa, endi yakkakurash, futbol va boshqa ko'plab sport turlarida ham raqiblarimiz ancha o'ylab, bahsga kirishishga majbur.

Boisi, so'nggi yillarda yurtimizda sport sohasidagi islohotlar ham avj pallaga kirdi. Prezidentimiz tashabbusi va davlat dasturlarida belgilangan maqsadli yo'nalishlar orqali sport nafaqat sog'lom turmush tarzini qaror toptiradigan, balki mamlakatimiz nufuzini xalqaro maydonlarda yuksaltiradigan asosiy vositaga aylandi.

Sohada qilinayotgan ishlar yoshlarning tarbiyasi, jismoniy va ma'naviy kamolotini ta'minlashda ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Islohotlar jarayonida asosiy e'tibor "Sog'lom avlod — sog'lom kelajak" tamoyiliga qaratilgan. Zero, kuchli davlat qurishning, jamiyatda ma'naviy va intellektual yuksalishga erishishning poydevori sog'lom va barkamol avloddir.

Shu bois, yurtimizda sport infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy sport majmualarini barpo etish, ommaviy sportni keng targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilayotir. 2017-2024-yillardagi islohotlar jarayonida sportni rivojlantirishga qaratilgan qator dasturlar qabul qilindi. Bu, o'z navbatida, aholi, ayniqsa, yoshlarning sportga qiziqishini oshirdi va qisqa muddatda samara bera boshladi.

2024-yili Parijda o'tkazilgan olimpiya va paralimpiya o'yinlarida sportchilarimiz chinakam jasorat ko'rsatib, umumjamoa hisobida 13-o'rinni egalladi. Ushbu zafarli yurishning davomi sifatida o'tgan yili yoshlarimiz jahon universiadasida 13-o'ringa, Bahraynda o'tkazilgan Yoshlar o'yinlari va Saudiya Arabistonidagi Islom birlamligi musobaqalarida 2-o'ringa munosib ko'rildi. O'g'il-qizlarimizning jahon, Osiyo va Olimpiya o'yinlarida 50 dan ortiq rekord natijaga erishgani yurtimizning xalqaro olimpiya harakatidagi o'rni va nufuzini yaqqol ko'rsatib turibdi.

E'tiborga molik yana bir jihat: Prezidentimizning 2025-yil 8-iyuldagi qaroriga binoan, O'zbekiston sportchilarini 2028-yilgi olimpiya va paralimpiya o'yinlariga tayyorlash dasturi qabul qilindi. Jarayonni tizimli tashkil etish maqsadida Milliy olimpiya qo'mitasining 14 ta hududiy bo'limi tashkil etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'rg'ori Kengisi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari olimpiya harakatini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Prezidentining maxsus vakili etib belgilandi. Har bir hududga Sport vazirligi va Olimpiya qo'mitasidan mas'ullar birtiktirildi.

Asosiy vazifa yuqori natijalarga erishish uchun doimiy va mustahkam zamin yaratishdir. Shu maqsadda iqtidorli sportchilarni eng quyi bo'g'indan boshlab saralash va professional etib tayyorlash uchun uch bosqichli "Yangi O'zbekiston olimpiya cho'qqilari" musobaqasi yo'lga qo'yildi. Uning final bosqichi har yili Olimpiya shaharchasida Prezident olimpiyasi sifatida o'tkaziladi. G'olib va sovrindor sportchilar Olimpiya markazlariga jalb etilib, professional tayyorgarlik bosqichiga kirishadi.

Futbol bo'yicha olimpiya jamoamiz Parij-2024 olimpiadasida birinchi marta ishtirok etdi. Tariximizda ilk bor milliy terma jamoamiz uch mamlakat — AQSH, Kanada

va Meksika yashil maydonlarida o'tadigan jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritdi. O'zbekiston o'smirler (U17) terma jamoasi murakkab, mashaqqatli va matonatli yo'lni bosib o'tib, o'z tarixida uchinchi marta Osiyo chempionati finaliga chiqdi va qahramonlarcha g'alaba qozondi. Ular Qatar o'tgan jahon birinchi ligada ham Osiyo chempioni sifatida mamlakat sharafiga munosib himoya qildi, nomdor jamoalardan nafaqat qolishmasligini, balki ustun ham ekanini isbotladi.

Bunday yutuqlarni qo'lga kiritishda esa sportchilar uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratish, ularning tayyorgarligini xalqaro mezonlar asosida tashkil etishning ahamiyati naqadar muhim ekanini namoyon bo'lmoqda.

O'shanda Prezidentimiz marosimdagi nutqini to'xtatib, quvonchli yangilik — yurtdoshimizning g'alabasini e'lon qilib, chempionni qutlagan edi.

Ushbu buyuk g'alaba bilan chin dildan tabriklayman. Sen o'zbek o'g'loni, yangi O'zbekiston farzandi nimalarga qodir ekanini dunyoga ko'rsata olding. Sendek farzandim borligi bilan faxrlandim, xalqimiz faxrlandi. Ilohim, g'oliblik yo'li bardavom bo'lsin, — dedi davlatimiz rahbari marosimdan so'ng telefon orqali chempionni tabriklab.

O'z navbatida, Javohir Sindorov bu g'alaba kelgusidagi yanada ulkan zafarlarning boshlanishi ekaniga umid bildirib, jahon shaxmat tojini Vatanimizga olib kelishga va'da berdi. Yaratilgan



O'zbekistonlik yosh grossmeyster amaldagi jahon chempioni, hindistonlik Gukesh Dommaraju bilan shaxmat toji uchun bahslashadi. Shaxmat taxtasi uzra kechadigan bu "jang" 2026-yil oxirida bo'lib o'tishi kutilmoqda.

Players	1	2	3	4	5	6	7	8	Points	Place
Javohir Sindorov	1/2	1	1/2	1	1/2	1	1/2	1	10	1
Matthias Blübaum	1/2	1/2	1/2	0	1/2	1/2	1/2	1/2	6	67
Praggnanandhaa R	0	1/2	1/2	1/2	1	1/2	1/2	1/2	6	67
Fabiano Caruana	0	1/2	1/2	0	1/2	1/2	1	1	7.5	3
Hikaru Nakamura	1/2	1/2	1/2	0	1/2	1/2	1/2	1/2	6.5	5

Yana shaxmatga qaytsak. Yodingizda bo'lsa, o'tgan yili davlatimiz rahbari Prezident Olimpiyasi musobaqalarining tantanali ochilish marosimida nutq so'zlayotgan pallada dunyo uzra bir xushxabar tarqaldi: "O'zbek o'g'loni Javohir Sindorov shaxmat bo'yicha jahon kubogi g'olibi bo'ldi!".

Javohir Sindorov shu paytgacha FIDE jahon kubogini yutgan eng yosh (19 yosh) chempion bo'lib tarixga kirdi! Hindistonning Goa shahri mezonlik qilgan FIDE jahon kubogi-2025 g'olibli Javohirga ayni paytda Kiprda bo'lib o'tgan nomzodlar turnirida ishtirok etish uchun rasmiy yo'llanmani ham taqdim qildi.

imkoniyat va ko'rsatilayotgan e'tibor uchun Prezidentimizga minnatdorlik izhor etdi.

Javohir katta ishtiyok bilan va dasini bajarishga kirishgan ko'rinadi. Bugun o'zbek o'g'loni ushbu toj uchun amaldagi jahon chempioni bilan yakkama-yakka bahsga kirishishga hozir. Bunday imkoniyatga qo'ng'iroq uchun esa o'ta murakkab, og'ir sinovlardan o'tib kelmoqda. Xalqaro grossmeyster, jahon kubogi sohibi Javohir Sindorov ushbu yo'ldagi oxirgi, eng qiyin bosqich — 2026-yilgi Nomzodlar turnirida muddatidan oldin g'oliblikka erishib, amaldagi shaxmat toji egasi hindistonlik Gukesh Dommaraju bilan dona surish imkoniyatini qo'lga kiritdi.

Musobaqa yakuniga bir tur qolganida asosiy ta'qibchisi — niderlandiyalik grossmeyster Anish Giri bilan murakkab qarama-qarshilikda durang natija qayd etdi hamda 13 imkoniyatdan 9.5 ochko jamg'ardi. Kipr mezbonligida o'tgan bu galgi turnir o'ta yuqori raqobat, keskin intellektual kurash va tarixiy natijalar bilan yodda qoldi. Musobaqa dunyo reytingidagi eng kuchli 8 grossmeysteri bir maydonda jamladi. Hamyurtimiz, jumladan, Anish Giri, Fabiano Caruana, Hikaru Nakamura, Rameshbabu Praggnanandha kabi kuchli grossmeysterlarga qarshi ishonchli o'ynab, turnir tarixida kuzatilmagan noyob holat — olti g'alabali partiya bilan rekord natija qayd etdi.

Shu tariqa u Nomzodlar turnirida aks etgan chiqqan o'zbekistonlik ilk shaxmatchi sifatida tarixga kirdi. Ungacha faqat 2004-yili FIDE bo'yicha (eski formatda) jahon chempioni bo'lgan Rustam Qosimjonov bunday katta yutuqqa erishgan edi. Endi o'zbekistonlik yosh grossmeyster amaldagi jahon chempioni, hindistonlik Gukesh Dommaraju bilan shaxmat toji uchun bahslashadi. Shaxmat taxtasi uzra kechadigan bu "jang" 2026-yil oxirida bo'lib o'tishi kutilmoqda.

Kiprdagi g'alabadan so'ng Javohir fikrlari bilan o'rtoqlashdi. Yosh shaxmatchi turnir davomida O'zbekistondagi muxlislarining mehri va e'tiborini doim sezib turganini ta'kidladi:

— Kecha oilaviy muloqot guruhimizga Toshkent ko'chalaridagi monitorlarda aks etgan suratimni yuborishganida ko'rib hayron qoldim. Butun O'zbekiston turniri kuzatayotganini o'shanda yanada chuqur his qilim. Har bir turda bu qo'llab-quvvatlovni sezib turdim. Buning uchun barchaga rahmat aytaman, — dedi muzaffar shaxmatchimiz.

Prezidentimiz 15-aprel kuni Javohir Sindorov bilan telefon orqali muloqot qildi va yosh grossmeysterimizni O'zbekiston shaxmat tarixida birinchi marta mazkur nufuzli musobaqada qat'iy qozonib, tom ma'nodagi tarixiy g'alabaga erishgani bilan samimiy tabriklandi.

Javohir ushbu turnirda ilgari hech kim chiqqa olmagun yuksak marrani zabt etgani, 14 o'yinda 6 marotaba g'alaba qozonib sport olamida kamdan-kam uchraydigan noyob hodisa ekan alohida ta'kidlandi. U dunyoning eng dongdor shaxmatchilariga qarshi har bir bahsda katta jasorat va mahorat bilan dona surib, kuchli irodasi, yuksak intellektual salohiyati va qat'iyatini namoyon qilgani qayd etildi.

Davlatimiz rahbari endi Javohir Sindorov oldida jahon toji uchun hal qiluvchi va sharafli bellashuv turini ta'kidlab, bo'lajak o'yinlarda unga yanada ulkan omad, kuch-g'ayrat va yangi zafarlar hamrohligiga tilak bildirdi. Joriy yil Samarqand shahrida o'tadigan 46-jahon shaxmat olimpiadasida Javohirning ishtiroki, shubhasiz, jamoamizga katta ruh va ishonch bag'ishlashini ta'kidladi.

Ayni paytda e'tibor tufayli shaxmat maydonida Javohir Sindorov yolg'iz emas, uning qatibida "ot suradigan", "fil o'ynatadigan" mahoratlari yigit-qizlarimiz talaygina. So'nggi yillarda Javohirdan boshqa Jahon shaxmat federatsiyasi (FIDE) reytinglarida nomi zikr etiladigan, bizga qarddon ismlarga e'tibor bering-a! Ular allaqachon shaxmat tarixiga kirgan: Nodirbek Abdusattorov, Muhiddin Madaminov, Afruz Hamdamova, Umida Omonova, Nodirbek Yoqubboyev, Shamsiddin Vohidov, Jahongir Vohidov, Gulruhbegim Tohirjonova... Ro'yxat uzun. Undagi shaxmatchilarimiz 60 dan ziyod.

Shaxmatning yosh avlod vakillaridan Sarvinoz Bekmurodovning joriy yil yanvarda erishgan muvaffaqiyati ham mutaxassislarda katta umid uyg'otmoqda. O'zbek qizi 12 yoshida FIDE ayollar o'rtasida sport ustasi bo'ldi. Sarvinoz O'zbekiston shaxmati tarixida bu darajaga erishgan eng yosh qiz sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur tarixiy g'alaba ma'naviy taraqqiyot, Uchinchi Renessansga qo'yilgan ulkan poydevordir. Yangi O'zbekistonning kelajagini mana shunday yigit-qizlar quradi. Sarvinozning bu yutug'i millionlab yoshlarni rahlantirib,

katta rag'bat beradi. Kelajakda shaxmat bilan shug'ullanadiganlarni soni ko'payishi, sportimiz tarixi sahifalari yoshlarimizning katta intellektual tafakkuri mahsuli bo'lgan ulkan g'alabalar bilan boyishi shubhasiz.

Yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, xalqaro maydondagi yutuqlar va boy tarixiy ildizlar yurtimizda haqli ravishda nafaqat shaxmat, balki sportning qator turlarini taraqqiy toptirish uchun asos bo'lmoqda. Zero, xalqimiz tiynatida muzaffarlik mujassam. Demak, bizga g'alabalar yarashadi.

Nodir MAHMUDOVI, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

TAXMINLAR OROL DENGIZINING QURIGAN TUBIDA VAQT O'TISHI BILAN NISBATAN BARQAROR O'SIMLIK JAMOALARI SHAKLLANISHI EHTIMOLI BORLIGINI ANGLATADI.

# MOSLASHISH VA QAYTA TIKLANISHNING NOYOB TABIIY LABORATORIYASI

2026-yil 18-aprel, 77-son



Orol dengizi fojiasi insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik inqirozlar. Binobarin, bir paytlar ulkan suv havzasi bo'lgan ulkan hududning bugun katta qismi qurib, sho'rxok va qurg'oqchil maydonga aylangan. Biroq so'nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlar Orolning qurigan tubi mutlaqo jonsiz emasligini ko'rsatmoqda. Aksincha, bu yerda murakkab, sekin, ammo muayyan qonuniyatlarga asoslangan tabiiy tiklanish jarayoni kechmoqda.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Bugun olimlar Orol dengizining qurigan tubida o'simlik qoplami qanday shakllanayotganini nafaqat dala kuzatuvlari, balki kosmik tasvirlar yordamida ham tahlil qilmoqda. Shunday zamonaviy usullardan biri NDVI, ya'ni o'simlik qoplamining holatini baholashga xizmat qiluvchi ko'rsatkichdir. U sun'iy yo'ldosh tasvirlari orqali hududdagi yashil massa miqdori va vegetatsiya faolligini aniqlash imkonini beradi. Mazkur usul yordamida Orol tubidagi o'simliklar qoplamining o'zgarishi uzoq yillar davomida kuzatilib, asosiy tendensiyalari aniqlangan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 1986-2023-yillarda Orol dengizining qurigan tubida o'simlik qoplami bir xil sur'atda

rivojlanmagan. Ayrim yillarda vegetatsiya susaygan bo'lsa, aksincha, ayrim davrlarda tiklanish kuchaygan. Masalan, 1986, 1995 va 2000-yillarda NDVI ko'rsatkichi bir oz pasaygan bo'lsa, 2010-yilda eng yuqori natija — 0,89 qayd etilgan. 1990, 2015, 2020 va 2023-yillarda esa vegetatsiya nisbatan barqaror darajada saqlanib qolgan. Bu ko'rsatkichlar dengizning qurigan tubida o'simlik qoplami shakllanishi to'xtamagan, balki tabiiy sharoitga mos ravishda davom etayotganini ko'rsatadi.

Bu jarayon, avvalo, iqlim omillari bilan chambarchas bog'liq. Harorat va yog'in miqdoridagi o'zgarishlar o'simliklarning o'sishi va biomassa to'plashiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlarga ko'ra, 1983-yildagi yuqori harorat, 1984-1986-yillardagi qahraton qish va vegetatsiya davrida yog'inning kamligi 1986-yilda NDVI pasayishiga sabab bo'lgan. Aksincha, 2010-yili bahor oylarida, xususan, mart — mayda yog'inning ko'p bo'lishi vegetatsiya rivojlanishiga qulay sharoit yaratgan va yashil qoplamning ortishiga olib

kelgan. Demak, Orol tubida o'simlik hayoti iqlim sharoiti, ayniqsa, bahorgi namlik bilan uzviy bog'liq.

Shu nuqtayi nazaridan, NDVI tahlili Orolning qurigan tubidagi ekologik holatni baholashda muhim vositaga aylanoqda. U hududning qanchalik yashillashganini ko'rsatibgina qolmay, qaysi davrda va qanday tabiiy sharoitlarda o'simlik qoplami faol shakllanayotganini ham ochib beradi. Bu esa ekologik monitoring, tiklash choralarini va kelgusidagi ilmiy prognozlar uchun katta ahamiyatga ega.

Biroq Orolning qurigan tubida o'simlik qoplami shakllanishini faqat iqlim omillari bilan izohlab bo'lmaydi. Ko'p yillik geobotanik kuzatuvlar bu jarayonning yanada chuqur qonuniyatlarini ochib berdi. Fanlar akademiyasi Botanika instituti olimlari o'tkazgan 35 yillik fundamental tadqiqotlar asosida Orol dengizining qurigan tubida shakllanayotgan o'simlik va ekotizmlarning uzoq muddatli dinamikasi o'rganildi. Ushbu tadqiqot natijalari dunyoning nufuzli ilmiy nashrlaridan biri — "Ecological Indicators"



Jasur SADINOV, Botanika instituti Geobotanika laboratoriyasi kichik ilmiy xodimi

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 1986-2023-yillarda Orol dengizining qurigan tubida o'simlik qoplami bir xil sur'atda rivojlanmagan. Ayrim yillarda vegetatsiya susaygan bo'lsa, aksincha, ayrim davrlarda tiklanish kuchaygan.

jurnalida chop etilgan ham mavzuning xalqaro miqyosdagi dolzarbligini ko'rsatadi.

Mazkur kuzatuvlar davomida Orol dengizining qurigan tubida beshta asosiy ekotizim turi shakllanganini aniqlangan. Bu juda muhim xulosa. Chunki u hududdagi o'simlik qoplami tasodifiy emas, balki muayyan ekologik omillar ta'sirida, qonuniy ravishda shakllanayotganini tasdiqlaydi. Tadqiqotchilar 30 dan ortiq dominant o'simlik turining almashinish jarayonini kuzatib, bu holatni tuproqning mexanik tarkibi, sho'rlanish

darajasi va yer osti suvlarining joylashuv chuqurligi bilan bog'lagan.

Xususan, qumli va o'rta zichlikdagi tuproqlar hamda 1-1,5 metr chuqurlikda joylashgan sivot suv mavjud hududlarda fitomassa va bioxilma-xillik nisbatan yuqori bo'lishi aniqlangan. Aksincha, kuchli sho'rlangan og'ir tuproqlarda odatda juda sodda, monodominant galofit jamoalar shakllanadi. Bu esa Orol dengizi qurigan tubining turli qismlarida nega vegetatsiya darajasi va tarkibi bir-biridan farq qilishini izohlaydi.

Mamlakatimizdagi bunyodkorlik ishlari orasida "Yashil makon" umummilliy loyihasi nafaqat obodonchilik tashabbusi, balki inson salomatligi, iqlim barqarorligi va kelajak avlod taqdiri bilan uzviy bog'liq hayotiy dastur sifatida namoyon bo'lmoqda.

Aslida, daraxt ekish xalqimiz tafakkuriga qadimdan savob, obodlik va ezgulik timsoli bo'lib kelgan. Ammo keyingi o'n yilliklarda urbanizatsiya, noto'g'ri rejalashtirish, ayrim hududlarda daraxtlarning ayovsiz kesilishi va parvarish masalasiga yetarlicha e'tibor berilmagan ekologik muvozanatga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bois, davlat miqyosida yashil hududlarni kengaytirish masalasi oddiy tashabbus emas, balki zamon talabi sifatida kun tartibiga chiqdi.



## Yashil makon



Muhiddin TESHABOYEV, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

o'rmon xo'jaliklarida sifati va kafolatlangan urug' yetishtirish hajmini 1,5 baravar oshirish, yetkazib berilayotgan ko'chatlar hajmini esa 2 baravar ko'paytirish maqsad qilib qo'yildi. Demak, endi asosiy e'tibor faqat ko'chat soniga emas, balki ularning sifati, yashovchanligi, kasallik va zararkunandalarga chidamlilikiga ham qaratilmoqda.

Bugun ekologik siyosatning muvaffaqiyati faqat ko'chat ekish bilan emas, balki ularni parvarishlash, suv bilan ta'minlash va hududlarning iqlim sharoitiga mos tur tanlash bilan ham o'lchanadi. Shu maqsadda tuman va shaharlar kesimida keyingi 3 yilda qaysi hududda qancha daraxt ekilishi, qanday sug'orish vositalari kerakligi va kimlar mas'ul ekanini ko'rsatilgan "hududda yashillikni oshirish rejasi"ni ishlab chiqish vazifasi ham belgilangan. Bu esa "Yashil makon"ning mavsumiy hashar darajasidan institutsional va ilmiy asoslangan tizimga aylanayotganini anglatadi.

So'nggi yangiliklar bu yo'nalishdagi ishlar yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatmoqda. 2025-yil 1-oktabrdan boshlab "Yashil makon" elektron platformasida jamoatchilik ishtirokini oshirish, daraxt ekilishi mumkin bo'lgan hududlar koordinatasi, suv ta'minoti va keyingi parvarish imkoniyatlarini ko'rsatish, shuningdek, budget mablag'larining "har bir tiyin sarflanishini kuzatish" tamoyili asosida ochiqlikni ta'minlash mexanizmi joriy etildi. Bundan tashqari, daraxtlarni noqonuniy kesgan shaxslar, huquqbuzarliklar va ko'rilgan choralar bo'yicha ma'lumotlar ham platformaga muntazam kiritib boriladi.

Bu o'zgarishlar ekologik boshqaruvda mutlaqo yangi madaniyatni shakllantirmoqda. Ya'ni endi "Yashil makon" nafaqat ko'chat ekish aksiyasi, balki ochiqlik, raqamlashtirish, jamoatchilik nazorati va shaffof moliyaviy tizimga taylanuvchi zamonaviy platformaga aylanoqda. Bu esa fuqarolarning ishonchi va joylardagi mas'uliyatni kuchaytirish, natijadorlikni yanada oshirishga xizmat qiladi. Mamlakat miqyosidagi rejalarining

## UMUMXALQ HARA-KATIGA AYLANGAN TASHABBUS

hududlarda qanday aks etayotganiga doir ba'zi misollar ham e'tiborga loyiq. 2026-yil martdagi rasmiy ma'lumotga ko'ra, birgina hududda so'nggi 4 yilda 70 million tup daraxt ko'chati ekilib, yashillik darajasi 7 foizdan 14,5 foizga oshgan. Bu ko'rsatkich yashil siyosat amalda natija berayotgani, daraxt ekish ishlari izchil bajarilsa, ekologik manzara qisqa muddatda sezilarli o'zgarishda namoyon bo'ladi.

Avvalgi yillarda ham hududiy misollar bu tashabbusning xalqchil mohiyatini namoyon etgan edi. Masalan, Namangan viloyatida bir bosqichda 15 million 397 ming tup ko'chat ekish rejalashtirilgan. Ularning muhim qismi 62,5 gektardagi 29 jamoat parki va 83,1 gektardagi 30 yashil maydonga joylashtirilishi ko'zda tutilgan

edi. Shuningdek, viloyatdagi 712 ta maktab hududida 186 ming tup ko'chat o'tqazish belgilangan. Bu esa "Yashil makon"ning ta'lim muassasalari, mahalla va oilalargacha kirib borganidan dalolat.

Yana bir muhim yo'nalish — cho'llanishga qarshi kurashdir. Davlatimiz rahbarining mazkur farmoniga muvofiq, Orolbo'y hududida 250 ming gektar, jumladan, Orol dengizining qurigan tubida 115 ming gektar "yashil qoplama" barpo etish vazifasi qo'yilgan.

Bu ko'rsatkichlar "Yashil makon"ning faqat shahar ko'chalarini bezashga qaratilmaganini anglatadi. Loyiha aslida chang-qum bo'roni, tuproq degradatsiyasi, suvsizlik va iqlim o'zgarishi kabi murakkab ekologik

tahdidlarga qarshi milliy javob sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, Toshkent shahri atrofida 2026-2028-yillarda umumiy maydoni 790 gektar bo'lgan hududlarda "yashil belbog'" va ikkita botanika bog'i barpo etish loyihasi aholini chang-qum bo'roni ta'siridan asraysha qaratilgan.

Loyiha doirasida faqat daraxt ekish emas, balki ilmiy va tashkiliy infratuzilma ham kuchaytirilmoqda. Hujjatda 1500 tonna daraxt va buta urug'ini tayyorlash, 126 million tup nihol yetishtirish, davlatga tegishli 18 ta o'rmon xo'jaligini ko'chaltikka xizmatlashtirish, urug'lar genetik bankini tashkil qilish kabi vazifalar belgilangan. Bu esa yashil siyosatni tasodifiy aksiyalar emas, balki ilm-fan,

seleksiya, monitoring va barqaror xo'jalik yuritish tamoyillariga tayangan holda yuritish zarurligi anglab yetilganini ko'rsatadi.

Shuningdek, kadrlar masalasi ham e'tiborga olingan. O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti uchun 2025-2030-yillarda magistratura va doktorantura kvotalarini shakllantirish, ilmiy darajali mutaxassislar tayyorlash, o'rmon xo'jaligi tizimini yosh va zamonaviy fikrlaydigan kadrlar bilan to'ldirish vazifalari belgilangan. Bu esa ekologik islohotlarning uzoq muddatli muvaffaqiyati malakali mutaxassislar, ilmiy maktab va boshqaruv madaniyatiga ham bog'liq ekanini anglatadi.

Yana bir e'tiborli jihat shundaki, "Yashil makon" doirasida "Mening bog'im", "yashil jamoat parki", "yashil belbog'", "soyali sayr ko'chalari" kabi aniq formatlar joriy qilinmoqda. Kamida bir gektar maydonda yashil bog'lar, yarim gektardan kam bo'lmagan maydonda yashil jamoat parklari tashkil etish tartibi belgilangan. Bu yondashuv yashillikni shunchaki umumiy chaqiriq emas, balki manzilli, o'lchanadigan va hududiy loyihalar shaklida ro'yobga chiqaradi.

Bunday keng qamrovli ishlar, albatta, jamoatchilikning faol ishtirokizis samara bermaydi. Aholi, ta'lim muassasalari, mahalla faollari, tadbirkorlar va davlat tashkilotlarining bir yo'nalishda harakat qilishi "Yashil makon"ni chinakam umumxalq harakatiga aylantirmoqda. Xususan, ayrim hududlarda tadbirkorlar o'z mablag'i hisobidan yuz minglab ko'chatli bog'lar barpo etish tashabbusini ilgari surgani bu g'oyaning xalq qalbidan joy olganidan dalolat beradi.

Bugun ekologik madaniyat masalasi ham dolzarb. Chunki daraxt ekishning o'zi yetarli emas. Uni asrash, suv ta'minlash, parvarishlash, noqonuniy kesilishning oldini olish, har bir niholga mas'uliyat bilan qarash muhim. Shu ma'noda, "Yashil makon" inson va tabiat munosabatlarini qayta ko'rib chiqish, iste'molchi emas, yunusdork va posbon tafakkurini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Ekilayotgan har bir nihol ertangi kun uchun qo'yilayotgan amaliy qadamdir. U musaffo havo, salqin ko'chalar, qulay yashash muhiti, biologik xilma-xillik va avlodlar farovonligiga xizmat qiladi. Eng muhimi, u yangi O'zbekistonning taraqqiyoti tabiatni bo'ysundirish emas, balki u bilan uyg'un yashash tamoyiliga asoslanishini namoyon etadi.

Shu bois, "Yashil makon" buguning ekologik dasturi bo'lish bilan birga ertangi kunning ma'naviy va fuqarolik mezoniga ham aylanoqda. Tabiatga ehtirom, zaminga mehr va kelajak oldidagi mas'uliyat birlashgan joyda haqiqiy taraqqiyot kelib chiqadi. Demak, O'zbekistonning yashil belbag'i ekilgan har bir ko'chatda, asralgan har bir daraxtda va har bir fuqaroda uyg'ongan ekologik ongda mujassamdir.



Bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarining ta'lim dasturini majburiy umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi sifatida joriy etish tizimdagi muhim va strategik ahamiyatga ega islohotlardan hisoblanadi.



BIR YILLIK MAKTABGA TAYYORLOV UZVIYLIK VA IZCHILLIKNI TA'MINLAYDI

Prezidentimizning 2026-yil 5-fevraldagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mazkur sohadagi islohotlarni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan muhim hujjat sifatida ahamiyat kasb etadi.

Variativ ta'lim dasturi milliy ta'lim tizimining asosiy metodologik poydevori hisoblangan "Ilk qadam" milliy o'quv dasturi negizida ishlab chiqildi.

"Ilk qadam" milliy o'quv dasturi hamda maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta'limiga o'g'ayladigan amaldagi davlat talablari xalqaro tajribalar asosida yanada takomillashtirilgan.

Farmonda nodavlat sektorning ta'lim tizimidagi ishtirokini kengaytirishga ham alohida urg'u berilgan. Xususan, maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlariga bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarini tashkil etishga ruxsat berilishi raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda xizmatlar turini diversifikatsiyalashga xizmat qiladi.

2027/2028-o'quv yilidan boshlab maktabga tayyorlov guruhlarida ta'lim jarayonlarini yuqori malakali kadrlar tomonidan tashkil etish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Mazkur yondashuvning asosiy mohiyati shundaki, bolaning rivojlanish jarayoniga bir butun tizim sifatida qaralib, maktabgacha ta'lim bosqichida shakllantirilgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar keyingi bosqich boshlang'ich ta'lim dasturlari bilan uzviy bog'lanadi.

Xorijiy tajribadan ma'lumki, ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash yuqori natijalarga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega, — deydi S. Rahmonberdiyev. — Maktabgacha bosqichda bolalarda asosiy hayotiy va o'quv kompetensiyalari shakllantirilib, keyingi bosqichlarda ular izchil rivojlanib boriladi.

Umuman olganda, mazkur chora-tadbirlar bir yillik maktabga tayyorlov tizimini institutsional jihatdan mustahkamlash, uning qamrovini oshirish, davlat va nodavlat sektor hamkorligini kuchaytirish hamda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashga qaratilgan muhim islohotlardandir.

Risolat MADIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Milliy davlatchiligimiz tarixidan

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz muqaddimasida "davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasi, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosi" alohida ta'kidlanadi.

QO'QON XONLIGI

TASHKIL TOPISHI VA SIYOSIY JARAYONLAR

O'zbek xalqi davlatchiligi tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan Qo'qon xonligi Buxoro xonligida yuz bergan chigal siyosiy vaziyat tufayli mustaqil davlat sifatida vujudga kelgan.

Shohruxbiy Qo'qon xonligining birinchi hukmdori bo'lgan. Mahmud Hakim Yayfoniyning "Xullas ut-tavorix", Muhammad Fozilbekning "Mukammali tarixi Farg'ona" va Mullo Olim Maxdum Hojining "Tarixi Turkiston" asarlarida Shohruxbiyning taxtga o'tirishi boshqacha tasvirlanadi.

U hukmronligining dastlabki davrlaridan boshlab saltanatni mustahkamlash siyosatini yuritdi. Shohruxbiy davrida yangi tashkil topgan davlatning ma'muriy hududi u qadar katta bo'lmay, asosan, Farg'ona vodiysining shimoliy va markaziy qismlarini qamrab olgan edi.

Buxoroda ashtarxoniyat o'rni kelgan mang'itlar sulolasiga davlat boshqaruvi, harbiy salohiyat, ma'muriy tizim meros bo'lib qolgan bo'lsa, Qo'qon xonligida minglar bu tizimni avvaldan o'zlarida ishlab chiqishga majbur edi. Shu o'rinda "Tarixi Turkiston" asari muallifi Mullo Olim Maxdum Hojining quyidagi ma'lumoti diqqatga sazovor: "Shohruxxon... Namangan sarhadidan to' Shohidon va Ponsodi G'oziyga, alhol Pong'oz deb ataladur, hukumatini joriy qilib, ul viloyatga voliy va hokim tayin aylab, fath va nusrat birla qaytib kelib tushubdur".

Ushbu ma'lumotdan Shohruxbiy hukmronligining ilk kunlaridan boshlaboq nafaqat markaziy, balki mahalliy boshqaruv tizimini ham shakllantirib, Markaziy Osiyodagi davlatchilik an'analari davom ettirgan holda davlatni boshqarishga harakat qilgan anglashiladi.

Hukmdor Shohruxbiyning avlodlari yangi tuzilgan davlatning hududini kengaytirish siyosatini tutdi. Bu siyosatning amaldagi tabiiy g'iri asnosida davlatni boshqarish asoslari shakllanib bordi. Xususan, o'n ikki yillik hukmronlik davridan so'ng vafot etgan Shohruxbiy o'rni — taxtga to'ng'ich o'g'li Abdurahimbiy o'tiradi. U mamlakat siyosiy qudratini oshirish, hududiy chegarani kengaytirish maqsadida harbiy harakatlarni boshlab yubordi.

Masalan, Buxoro xonligiga tegishli Xo'jand viloyatini egallab, ukasi Abdurakarimbiy hokim etib tayinlaydi. Kichik ukasi Shodbiy esa Marg'ilon viloyatiga hokim bo'ldi. Harbiy harakatlari natijasida Abdurahimbiy bir oz muddat Buxoroda, Buxoroga qarashli Samarqand, Jizzax va Kattarog'rg'oni ham tasarrufiga kirgizib, Samarqandga Mullo Bechorani, Jizzaxga Olohqulibek doxdohni hokim etib tayinladi. Qo'qonga qaytishda xonning o'zi og'ir dardga chalilib, Xo'jandda vafot etdi. Uning hukmdorlik davrida Farg'ona vodiysi to'liq markazlashgan davlatga aylandi.

Abdurahimbiy vafotidan so'ng Qo'qon taxtiga ukasi Abdurakarimbiy o'tirdi. U ham akasi singari mamlakat farovonligi, yurt obodligi uchun munosib hukmdorlik qildi. Xonning davlat boshqaruvidagi faoliyati haqida "Ansob us-salotin" asarida "Abdurakarimxon shijoatlik, sipoh va fuqarog' a'shafqatlik, Xudovandi taolaga ibodatlik erdi", deb ta'rif beriladi. Abdurakarimbiy poytaxt — Qo'qon shahrini kengaytirib, aylantirib devor qurishga buyruq berdi. O'sha vaqtda Qo'qon shahrining to'rtta darvozasi qurilgan. XVIII asr birinchi yarmida xonlikning shimoldan kirib kelgan ko'chmanchi jung'or

qabilalari hujumini qaytarib, markazlashgan hokimiyatni mustahkamladi.

Qo'qon taxtida 17 yil hukm sargan Abdurakarimbiy vafotidan so'ng hukmron doira vakillari o'g'li Abdurahmonbiy xon etib ko'taradi. U atigi 9 oy hukmronlik qiladi. Qo'qonning keyingi hukmdori — Abdurahimbiyning o'g'li Erdonabiy davrida mamlakat hududini kengaytirish ishlari davom etdi, yurt obod va farovon bo'ldi.

Erdonabiy o'n yil hukmronlik qilib vafot etgach, taxtni Shodbiyning o'g'li Sulaymonbiy va Abdurahmonbiyning o'g'li Norbo'tabiy egalladi. Manbalarda Norbo'tabiy hukmronligi davrida mamlakat iqtisodiyoti yuqori darajaga ko'tarilgan qayd etiladi. Bu holat Qo'qonga qarshi tashqi xavf bo'lmaganida hamda ob-havo va tabiiy sharoit yaxshi kelgani bilan izohlanadi.

"Tarixi Turkiston" asari muallifi "Pul ul xonning zamonida joriy qilibdur", deb ma'lumot beradi. Lekin muarrixning bu ma'lumotiga asoslangan holda xonlikda shu davrga qadar pul muomalasi bo'lmagan deb xulosa qilmaslik kerak. Xonlikda aynan Norbo'tabiy davrida mo'l-ko'lichilik tufayli arzonchilik yuqori darajaga yetgan. Bu holat mayda chaqa pul zarb etish zaruratini tug'dirgan. Norbo'tabiy pul islohotini o'tkazib, "qora fulus" deb nomlangan eng mayda chaqa zarb ettiradi.



Xudoyorxon

Manbalarda Norbo'tabiy nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy sohada ham yuzaga kelgan turli chigal vaziyatlarni hal qila olish qobiliyatiga ega hukmdor sifatida qayd etiladi. Hukmronligining so'nggi yillarida ukasi Hojibek bilan o'rtalarida paydo bo'lgan adovatni ijoiy hal qilishga erishadi. Shuning uchun ham u Qo'qon xonlari orasida eng uzoq muddat — 36 yil davlatni boshqargan. Norbo'tabiyning oliy hukmdor sifatidagi bu faoliyati xonlikda davlatni boshqaruv tamoyillari shakllanib, rivojlanib borgan va Qo'qon hukmdorlari ulardan yaxshi xabardor bo'lganini ko'rsatadi.

Norbo'tabiy vafotidan so'ng taxtga o'tirgan Olimxon davlatni idora etishda fuqarolarni ijtimoiy himoyalash va ishsizlik masalasida ham samarali islohotlarni o'tkazgan. "Tarixi Shohruxiy" asarida Olimxon mamlakatdagi gadoylar, devona va ishyoqmas odamlarni g'alla va o'tin tashish ishlariga jalb qilgani qayd etiladi.

Umarxon 1810-yili Qo'qon taxtni egallaydi. U mamlakatda davlatchilik asoslarini mustahkamlashga harakat qiladi. Xususan, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yishda muhim ishlarni bajaradi. Davlat taraqqiyotida tashqi savdo aloqalarining o'rni beqiyosligini to'g'ri anglab, Qo'qon xonligi va Rossiya o'rtasidagi dastlabki savdo diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'yadi hamda 1812-yili bu davlatga elchi yuboradi. Umarxon Qo'qon adabiy muhitining shakllanib,



Amiriy

rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, qolaversa, o'zi ham Amiriy taxallusi bilan o'zbek va fors tillarida she'r bitgani yaxshi ma'lum.

1822-yili og'ir kasallik tufayli vafot etgach, taxtga Umarxonning 14 yoshli o'g'li Muhammad Alixon o'tiradi. U ham o'zidan oldin o'tgan hukmdorlar kabi faol tashqi siyosat yuritdi. Koshg'arda yuz bergan voqealar xonning bu hududdagi harakati va Xitoy bilan munosabatlarning keskin tus olishiga sabab bo'ldi.



Nasriddinxon

Muhammad Alixon hukmronligining so'nggi davrida xonlikdagi davlatchilik an'analardan chekindi. Davlatni mutlaq yakka hokimlik uslubida boshqarishga harakat qilgani, hukumat ishlarni hal etishda amaldorlar va ulamolar fikri bilan hisoblashmaganini tarixiy manbalardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Shuningdek, uning markaziy boshqaruvda yuqori mavqega ega ayrim mansabdorlarni qatl ettirgani va badarg'a qilgani hokimiyatning zaiflashuvi, muxolifat kuchlarining mamlakat tashqarisida birlashib, harakat qilishiga imkon yaratdi.

Qo'qon xonligi markaziy hokimiyatida vujudga kelgan bunday vaziyatdan muxolif kuchlar unumli foydalandi. Buxoro amiri Nasrulloxonni gijgijlab, Qo'qonga qarshi qo'shin tortishga undaydi. 1842-yili Nasrulloxon Qo'qonni zabt etadi va Nodirabegim, Muhammad Alixon hamda xonning ukasi Sulton Mahmudxonni, shuningdek, hukmron sulolaning bir necha vakillarini qatl ettiradi.

Davlatning tanazzulga yuz tutishi

XIX asrda Qo'qon taxtiga dastlab Sheralixon, so'ng avlodlari Xudoyorxon, Mallaxon, Sulton Sayidxon, Nasriddinxon o'tiradi. Taxt uchun

o'zaro kurashlar, iqtisodiy bosim tufayli xonlikda inqiroz yuzaga keladi. Bundan esa tashqi kuchlar, jumladan, Rossiya imperiyasi unumli foydalanadi.

Mallaxon xonlikning harbiy salohiyatini oshirish va tashqi kuchlarning bosqinchiligiga qarshi kurashish uchun muntazam qo'shin tuzishga harakat qiladi. 1859-yil 28-noyabrda Xiva xonligi bilan shartnoma imzolab, Rossiya imperiyasi qo'shiniga qarshi birgalikda yurish qilishga kelishib olgan edi. Biroq 1862-yilda Mallaxonning o'ldirilishi bu shartnomaning bekor bo'lishiga olib keldi. 1865-yili Rossiya imperiyasi qo'shinlari Toshkentni bosib oldi. Oqibatda xonlikdagi taxt uchun kurashlar, siyosiy va iqtisodiy bosimlar tufayli davlat tanazzulga yuz tutdi.

1875-1876-yillardagi ichki kurashlardan foydalangan Rossiya imperiyasi qo'shinlari xonlikning poytaxtini egalladi va 1876-yil 19-fevralda Qo'qon xonligi butunlay tugatilgani e'lon qilindi.

Diplomatiya va konsullik idorasi

Qo'qon xonligi 1759-yilda Xitoyning Ching, 1810-yilda Rossiya, 1820-yilda Usmoniylar imperiyalari, shuningdek, turli yillarda yaqin qo'shni davlatlar — Buxoro amirligi, Xiva xonligi, qozoq juzlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. Bundan tashqari, xonlikning chet eldagi boshqaruv shakllaridan biri oqsoqollik tizimi, ya'ni konsullik idorasi bo'lgan. Idorada xon yorlig'i ostida faoliyat yuritgan oqsoqol, zamonaviy ta'bir bilan aytganda, konsul chet elda, jumladan, Rossiya imperiyasining Astraxan, Sibir hududlarida hamda Xitoydagi Ching imperiyasining Koshg'ar, Yorkent, Xo'tan, Turfon, Kuchor, Urunchi, G'ulja shaharlarida savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanayotgan Qo'qon xonligi fuqarolarining huquqlarini himoya qilgan. Bunday yorliqlarga ega bo'lgan oqsoqol Sharqiy Turkistonda ham istiqomat qilgan.

Qo'qonning hozirgi Xitoy hududidagi konsullik idorasi 1762-yilda turkistonlik savdogarlar tomonidan Yorkentda mustaqil uyushma sifatida tashkil qilingan. Qo'qonlik savdogar Rizoqli Yorkentdagi turkistonlik savdogarlarning oqsoqoli etib tayinlangan. Ikkinchi oqsoqol esa Koshg'arda tayinlangan bo'lib, u toshkentlik savdogar Ne'matjon edi. 1808-yilda u vafot etgan. Qo'qon oqsoqoli lavozimiga boy yoki amaldor bo'lgan savdogarlar toifasidagi shaxslar, keyinchalik harbiylar ham ijara sharti bilan tayinlangan.

1828-yilda Qo'qon xonligidan kelib, Xitoyda istiqomat qilgan 5122 oila bo'lgan. Ularning 3602 tasi Tyanshanning janubida, ya'ni Koshg'ar, Yorkent, Xo'tan, Uchurfon, Yangihisor, Kuchor, Oqsuv va boshqa aholi manzillarida, 460 tasi shimolda Urunchi, G'ulja, Chuguchakdan iborat Ili viloyatida yashagan.

Qo'qon hukmdori Muhammad Alixon 1834-yilda A'lam pochta o'miga Abdug'ofurni tayinlagan, biroq u oqsoqollik davrida qo'qonlik fuqarolarga nisbatan zolimligi bilan mashhur bo'lgan. Shu sababli u Muhammad Alixonning buyrug'iga ko'ra dorga osilgan. Tarixchi Qurbon Ali Ayaguziy "Tarixi xamsai sharqi" asarida Abdug'ofurdan so'ng Ne'matjon oqsoqollik mansabiga tayinlangan deb yozgan. 1842-yildan 1844-yilgacha Ro'zi oqsoqol konsul bo'lgan. Qo'qon hukmdori Xudoyorxon davrida asli toshkentlik savdogar Ne'matjon doxdoh oqsoqol etib tayinlangan. 1852-1853-yillarda xo'jandlik Bayjonbiy, 1855-1856-yillarda Sayid O'roq oqsoqol bo'lgan.

Qo'qon oqsoqoli mansabining qachon tugatilgani haqidagi ma'lumotlar ham bahsli. Qurbon Ali Ayaguziyning "Tarixi xamsai sharqi" asarida yozilishicha, "Ushbu oqsoqollik manjurlar hukumatiga qarshi ko'tarilgan dung'on-uyg'ur to'ng'olonlaridan so'ng tugatilgan". Ammo XIX asrning 60-yillaridagi Qo'qon sarkardasi Muhammad Yoqubbekning Yettishahar davlati davrida Qo'qon oqsoqolligi tugatilganini ko'rish mumkin. Qo'qon xonligi davrida tashkil etilgan oqsoqollik tizimi 1876-yili xonlik tugatilgandan so'ng ham faoliyatini to'xtatmagan. Bu oqsoqollik tizimi XIX asr oxiri — XX asrning boshlarida Oqsuv, G'ulja, Uchurfon, Yorkent, Xo'tan, Kuchor, Qorashahar, Lobnor, Turfon, Xami, Keriya va Dunxun kabi shaharlarga kengayib borgan.

Sherali QO'LDOSHEV, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori



## BIRGA KITOB O'QIYMIZ



### Izhor

Umrimga rang bergan,  
Rangin xitob o'qiymiz.  
Saodatni jam bergan,  
Birga kitob o'qiymiz.

Yulduz – u yo'l ko'rsatur,  
Hayotimizga dastur,  
Sodiq, vafodor do'stir,  
Birga kitob o'qiymiz.

Pand bermagay, bergay qand,  
Boshni etgay sarbaland,  
Kim pok baxtga orzumand,  
Birga kitob o'qiymiz.

Ilmu tafakkurga kel,  
Toza tasavvurga kel,  
Nurga – tadabburga kel,  
Birga kitob o'qiymiz.

Dur to'la ganjinadir,  
Tuganmas xazinadir,  
Falaklarga zinadir,  
Birga kitob o'qiymiz.

Bobolarning xatidan,  
Dil kelgay har qatidan,  
Ibrat ol suhbatidan,  
Birga kitob o'qiymiz.

Buxoriy imyon bo'lib,  
Temurbek sulton bo'lib,  
Ulug'bek osmon bo'lib,  
Birga kitob o'qiymiz.

Navoiyni anglash-chun,  
"Munojot"ni tinglash-chun,  
Kaftingda turgay ochun,  
Birga kitob o'qiymiz.

Yo'q bo'lsa qusur, illat,  
Yuksalgay Vatan, millat,  
Mangudir burch, sadoqat,  
Birga kitob o'qiymiz.

Shaxdam, shitob o'qiymiz,  
Mangu xitob o'qiymiz,  
Mohtob, oftob o'qiymiz,  
Birga kitob o'qiymiz.

G'ayrat MAJID

kontent markazi YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI

# MEDIA VA MAS'ULIYAT

Bugungi notinch dunyoda so'z bemis talafot yetkazuvchi qurol ekanini ko'pchilik yaxshi biladi. Global axborot makonida yuz berayotgan shiddatli o'zgarishlar, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellektning jadal rivoji, shuningdek, feyk xabarlar oqimi media sohasi vakillaridan yangi yondashuvlarni talab etmoqda.



### Haftalik

Shu maqsadda o'tkazilayotgan, respublikadagi yirik ta'limiy-amaliy loyihalardan biri — media haftalikning navbatdagi manzili Surxondaryo viloyati bo'ldi.

Termin tumanida, O'zbekiston va Afg'oniston chegarasida, Amudaryo bo'yida joylashgan "Termin xalqaro savdo markazi" erkin savdo zonasida o'tkazilgan media haftalik viloyatdagi ommaviy axborot vositalari xodimlari, blogerlar va matbuot kotiblarini yagona muhitda birlashtirishga xizmat qildi.

Besh kun davomida jurnalistlar, blogerlar hamda matbuot kotiblarini uchun PR, faktcheking va SMM yo'nalishlarida ekspertlar ishtirokida mahorat darslari tashkil etildi.

Har bir dars, har bir ma'ruza ahamiyatli bo'ldi, — deydi mahalliy jurnalist Vohid Choriyev. — Masalan, Termin tumanida tashkil etilgan haftalikning ilk kunida ekspertlarning "Termin maqsadi va vazifalari", "O'zbekiston bosma mediasidagi kontent: amaliyot, muammo va yechim", "Operator — material hammuallifi sifatida", "Mahalliy va xalqaro OAVlarning

ijtimoiy tarmoqlardagi amaliyotidan keyslar tahlili" kabi mavzulardagi chiqishlari muhokamalar markazida bo'ldi.

OAV uchun kontent tayyorlash markazi, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi va Surxondaryo viloyati hokimligi hamkorligida muhim ta'limiy-amaliy loyiha doirasida o'tkazilgan mashg'ulotlar 1000 ga yaqin ishtirokchi — internet va bosma nashrlar vakillari, telejurnalistlar, davlat idoralari matbuot kotiblarini hamda blogerlar uchun alohida yo'nalishlarda ham tashkil etildi.

Xususan, treninglarda 58 nafar matbuot kotibi, 66 nafar davlat va nodavlat telekanallari xodimlari hamda 41 nafar bosma va elektron nashrlar vakillari, shuningdek, zamonaviy media yo'nalishlariga bo'lgan qiziqish inobatga olingan holda, 35 nafar bloger, 250 nafar mobilograf hamda 250 nafar SMM mutaxassisi jalb etildi hamda ularning bilim va ko'nikmalari oshirildi. Bundan tashqari, 300 nafardan ziyod kontent yaratishga qiziquvchilar ham mashg'ulotlarda faol qatnashdi.

# YANGI O'ZBEKISTON

## SURXONDARYODA TA'LIMIY LOYIHA MUVAFFAQIYATLI O'TDI

— Media haftalikning aynan bir kuni matbuot kotiblariga bag'ishlandi, — deydi Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termin filiali matbuot kotibi Samiya Aqiyeva. — Unda bugungi kunning matbuot kotibi ommaviy axborot vositalari vakillaridan farqli o'laroq, asosiy ma'lumotni ajratib olishi, shuningdek, muammo bilan birga masalaga yechim ham ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozimligi tushuntirildi. Soha doirasidagi masalalar bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilishimiz, OAVda yoritiladigan asosiy mazmun aks etgan qisqacha xabarni ishonchli va xolis tayyorlay olishimiz zarurligi bildirildi.

Media haftalik soha xodimlarining amaliyotni nazariya bilan birlashtirib, o'zaro tajriba almashishiga ham xizmat qildi.

Shu maqsadda respublikaning eng yetuk media ekspertlari, muharrir va produserlari kontent yaratish, faktcheking, raqamli gigiyena, SMM va strategik kommunikatsiyalar kabi dolzarb mavzularda trening mashg'ulotlari o'tkazildi.

Ko'p hududiy gazetalarda materiallar hali ham rasmiy axborot, yig'ilish bayoni yoki press-relizlarga haddan tashqari bog'lanib qolgan, — deydi Surxondaryo viloyati hokimligi muassisligidagi "Surxon tongi" gazetasi bosh muharriri Salohiddin Norqobilov. — Ayni yo'nalishda raqamlashuv sekin

Termin davlat universitetida tahsil olayotgan bo'lajak yosh jurnalistlar uchun xatolarni tahlil qilish, aniq keyslar asosida ishlash va yangi yondashuvlarni shakllantirish kabi imkoniyatlar yaratildi. Ishtirokchilar yetuk mutaxassislarning boy tajribasi va zamonaviy mediani yuksaltirishning muhim yo'nalishlaridan bahramand bo'ldi.

Bugungi kunda media faqatgina axborot tarqatishdan iborat emas. U pozitsiya, mas'uliyat va ta'sir deganidir. Media haftalik orqali Surxon vohasi soha vakillari aynan shuni his qilyapti, — deydi Kontent markazining hududiy vakili Zahiriddin To'rayev. — Bu jarayonning eng muhim natijasi esa ishtirokchilarning o'z ishiga bo'lgan munosabatidagi ichki o'zgarishlardir. Ular endilikda axborotni shunchaki yetkazmaydi. Uni tushunadi, tahlil qiladi va unga javobgarlik bilan yondashadi. Bir so'z bilan aytganda, tadbir faqat bilim berishga emas, balki fikrlashni o'zgartirish hamdir.

Haftalik yakunida tashkil etilgan yirik mediaforumda 500 dan ziyod faol ishtirokchi jam bo'ldi. Unda ishtirokchilarga maxsus sertifikatlar topshirildi. Shuningdek, mashg'ulotlarda alohida faollik ko'rsatgan soha vakillari rag'batlantirildi.



kechaypti. Ko'pgina gazetalarda yaxshi sayt, mobil versiya, SMM, video, podkast, newsletter kabi qo'shimcha formatlar yo'q yoki bo'lsa ham juda sust faoliyat yuritmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ularning auditoriyadan uzoqlashiradi. Bugungi kun o'quvchisi tez, qisqa, vizual va foydali kontent istaydi. Gazetani faqatgina "qog'oz nashr" emas, balki mediaplatformaga aylantirish bugunining asosiy talabidir. Treningda nafaqat shu kabi muammolar, balki muhim yechimlarni ham gaplashdikki, bu juda ahamiyatli bo'ldi.

Haftalik doirasidagi mashg'ulotlar chog'ida loyiha qatnashchilari, xususan,

Bugun butun dunyoda kechayotgan jarayonlar, axborot makonidagi tezkor o'zgarishlar, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi, sun'iy intellektning rivojlanishi va feyk xabarlar oqimi mazkur sohada yangi yondashuv hamda izlanishlarni talab etmoqda. Shu ma'noda, Surxondaryo viloyatida o'tkazilgan media haftalik chin ma'noda o'z o'imini topdi va o'z so'zini aytadi.

Loyihaning keyingi bosqichi joriy yilning 20-24-aprel kunlari Qashqadaryo viloyatida davom etadi.

Sarvar TO'RAYEV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Oltiariq tumani "Zilol" mahalla fuqarolar yig'inidagi ilon izi yo'llar bo'ylab G'ulomjon Haydarov umrguzaronlik qilayotgan xonadonga kirib bordik. Uy bekasi bir etak nabiralari bilan nonushta qilayotgan ekan. Dasturxonada bir kosa qaymoq, non.

— Tomorqa ishlaridan ortib, nonushtaga endi vaqt topgandik, — deya bizni dasturxonaga taklif qildi oila bekasi samimiy.

Bu yerda ortiqcha hashamat yo'q, hamma narsa oddiy. Saranjom-sarishta hovli, peshayvon atrofida o'sib turgan gul-chechaklar dilingizga huzur bag'ishlaydi. Oilaning asosiy daromad manbai — issiqxonada erta tongda ishlash ham qulay, ham barakali bo'ladi. Kun isib ketgach, bu ishlarni bajarish birmuncha qiyinlashadi. Kimdir o'choq boshida, yana biri uy yumushlari bilan andamon.

Maqolamiz qahramoni, jismoniy imkoniyati cheklangan Ro'zixon Haydarova bilan tanishuvimiz shunday kechdi. Opaning ruhi tetik, so'zlamol, samimiy. Ikki qo'li nogiron bo'lsa-da, dardlarga yengilmaslik, tushkunlikka tushmaslikni mehnat orqali o'rgandi. "Nogironman, menga yordam bering", deyshi tugul, bu haqda o'ylashni ham istamaydi. Bajarayotgan yumushlaridan zavqlanib yashashga odatlangan. Farzandlarini ham hayotning shu haqiqatlariga monand tarbiyalab, kamolga yetkazdi. Turmush o'rtog'i, ikkinchi guruh nogironi G'ulomjon bilan bir yostiqaq bosh qo'rganiga 38 yil bo'libdi. Umr yo'lini belgilab turuvchi yillar silsilasi bu oilaga ko'p sinov berdi.

# YAXSHILAR MEHRIDAN KUCH OLIB...



### Matonat

“ODDIY, KAMTAR, KAMSUQUM OILANING HAYOT TARZI KO'PLAR UCHUN IBRATLI. XONADON A'ZOLARI O'ZI ISTAGANDEK YASHAYOTGANIDAN, OILASI RAVNAQIGA HISSA QO'SHAYOTGANIDAN MAMNUN.

Ba'zan quvonch, ba'zan mahzun kunlar oila qo'rg'onini yanada mustahkamladi, bir-biriga ishonchini oshirdi.

— Mana bu bizning "inkubatorimiz", — deya ayol hovli sathidagi chog'roq, qo'lbola usulda qurilgan issiqxonani ko'rsatadi. — Hozirga qadar besh marta sarxil sabzavot ko'chatlarini yetishtirdik. Daromadimiz 30 million so'mdan oshdi. Ehtiyojimizdan ortgan nihollarni qo'ni-qo'shnilariga beramiz, bozorga olib chiqamiz... Asli Oltiariqning Eski arab qishlog'idan kelin bo'lib tushganman. O'sha kezlari bu tomorqalarda

faqat chorva uchun ozuqabop ekin yetishtirib, bir marta hosil olingan. Otam usta tomorqachi bo'lgan. Hayotdek yerni bo'sh qoldirishdan xijolat bo'lib issiqxonada bodring, sabzavot

yetishtira boshlaganimda uydagilar "Qiyinlab qolasan", deb avvaliga ro'yxushlik bermagan. Keyinchalik mehnatim, intilishimni ko'rib, qo'llab-quvvatlashdi, duo qilishdi. U paytlari

hozirgidek sharoit, imkoniyat yo'q edi. Yerga turli ko'chat ekib, yarim metrcha balandlikda plyonka bilan qoplab parvarishlardik. Bugun hammasi o'zgarib ketdi. Imtiyozli kredit hisobiga 4 sotix issiqxonaga qurib berildi. Ayni kunda yetilgan bodringni bozorga chiqaryapmiz. Ming tupdan ortiq karam, sarimsoqpiyoz o'sib, baravay rivojlanyapti. Hosilni terib olgach, qalampir ekamiz. Bularning barchasi tinchlik-tovulvik, hamjihatlik mahsuli. Oilamizda bekor yurgan odam, bo'sh qolgan joy yo'q hisobi.

"Shuncha kuch-g'ayratni qayerdan olasiz, toliqib qolmayisizmi?" deb so'raymiz opadan.

— Jismoniy imkoniyatim cheklangan bo'lsa ham boshqalardan ortda qolmaslikka harakat qilganman, intilganman, izlanganman. Shu tariqa og'riq, qiyinchilik, kamistishlarni unutishga harakat qilganman. Bo'sh qoldim deguncha, tomorqa yumushlari bilan andamon bo'laman. Turmush o'rtog'im gapira olmaydi, ammo farzandlarim doim bizga tayanch. Bir ish boshlasak, hammamiz bir yoqadan bosh chiqaramiz. O'tgan yili ikki o'g'limga imkoniyati cheklangan shaxs sifatida imtiyozli tarzda 20 sotix ekin maydoni ajratib berildi. Bu yerga sabzavot ekib, daromad o'laymiz. Mehnatdan topgan daromadimiz o'z og'rimizga juda aqadati. Birovdam kam joyimiz yo'q. Bir o'g'lim Nuriddin harbiy xizmatchi, ikkinchisi maktabda informatika fanidan dars beradi. Qizimiz ham uyli-joyli bo'lib ketgan. O'n nafar nabiramiz bor. Bitta oila uchun bundan ortiq yana nima kerak?! Ularin quvonchini ko'rsak, charchoqni, nogironligimizni ham unutamiz. O'tgan mavsumda ro'zg'or kam-ko'stidan orttirib,

motoroller ham sotib oldik. Nasib bo'lsa, bu yil avtomashina xarid qilishni ko'zlab turibmiz. Keyin Toshkent, Samarqand, Buxoroga sayohat qilsak, deymand-an. Aytishadi-ku, "Mehnatdan kelsa boyluk, turmush bo'lar chiroylik". Hozirgi sharoitlar menga kuch-g'ayrat beradi. Yoshligimda ko'rgan kunlarimni bugungi shirin hayotga qiyoslab bo'lmaydi axir. Bu yurtda yashashning o'zi katta baxt. Hali rejalarim ko'p.

Oddiy, kamtar, kamsuqum oilaning hayot tarzi ko'plar uchun ibratli. Xonadon a'zolari o'zi istagandek yashayotganidan, oilasi ravnaqiga hissa qo'shayotganidan mamnun. Ayrimlar tan-joni sog', to'rt murchasi but bo'lishiga qaramay, yirtiqni yamashga ham erinadi. Ahvolini pesh qilib, mutasaddi idoralari eshidigan beri kelmaydi. Ro'zixon opa bunday ishlarga odatlanmagan. Hayotga hamisha umid bilan boqadi, faqat olg'a intiladi. Bu sa'y-harakatlar uning hayot maktabida o'z o'rnini topishi, bir oilaning munosib bekasi bo'lishiga yordam berdi.

— Hammasi uchun xalqimizdan minnatdorman, — deydi Ro'zixon opa. — Mahallamizda hokim yordamchisi kelgach, hayotimizda o'ziga xos o'zgarish, rivojlanishlar sodir bo'ldi. O'tgan yili imtiyozli kredit hisobidan g'unajin sotib olgandik. Yaqinda buzoqlaydi. 50 dan ortiq parrandamiz bor. Har kuni 25-30 ta tuxum terib olaman. Mahallamizda asfaltlanmagan ko'cha, suv yetib bormagan xonadon qolmadi. Elektr tarmoqlari yangilandi, suyultirilgan gaz, ko'mir ta'minotida uzilish yo'q. Buning uchun shukr qilishimiz kerak.

Bunday insonlarning mehnatsevarligi, hamma narsaga nekbinlik bilan qarashi xonadonga o'z gacha fayz, ko'tarinki kayfiyat bag'ishlab turganini yaqqol his etasiz.

Rasuljon KAMOLOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-446.  
30821 nusxada bosildi.  
Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.  
Bahoisi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva  
Musahhir: Nasiba Abdullayeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy